Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda virtual laboratoriya majmualaridan foydalanish ushbu maqsadga erishishga xizmat qiladi. Bugungi kunda uzluksiz ta'imini kompyuterlashtirish ishlari jadal olib borilmoqda, fanlarni o'qitish darajasini oshirish maqsadida o'quv axborot vositalari – elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalar, virtual laboratoriya majmualari yaratilib, ta'lim tizimiga joriy etilmoqda[2, 2017].

Aynan interaktiv virtual laboratoriyalarning rivojlanishi biologik fanlarni chuqur o'rganishga yordam beradi. Shuning uchun biologiya fanini o`qitish jarayonida virtual laboratoriya majmuasidan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda nazariy mavzular bilan birga laboratoriya mashg'ulotlarning o'rni muhim rol o'ynaydi. Ta'limni axborotlashtirish jarayonida raqamli texnologiyalardan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilishiga qaramay, virtual laboratoriya majmuasidan bo'lajak biologiya o'qituchilarini kabiy kompetentligini shakllantirish foydalanish qolaversa, masofaviy ta'limni tashkil etish yo'llari bugungi kunda maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan[4, 123 p, 2020].

Didaktik tamoyillar nuqtai nazaridan masofaviy ta'limni tashkil etish jarayonida dasturiy vositalar yordamida samarali amalga oshiriladigan uslubiy maqsadlar mavjud bo'lib ular qiyidagilar sanaladi:

o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish; o'quv natijalariga ko'ra xato diagnostikasi va o'quv faoliyati natijalarini baholash bilan qayta aloqa bilan nazoratni amalga oshirish; o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatishni amalga oshirish; o'quv materialini o'zlashtirish va bo'lajak biologiya o'qituvchilarini

tayyorlash jarayonida sifatli o‘qitishni amalga oshirish; ko‘p vaqt talab qiluvchi hisoblash ishlari va raqamli tahlil bilan bog‘liq tadbirlarni bajarish uchun maxsus maqsadli dasturiy vositalardan foydalanish; o‘rganilayotgan ob'yektlar, jarayonlar yoki hodisalarni modellashtirish va taqlid qilish; laboratoriya ishlarini haqiqiy tajriba yoki eksperimentga taqlid qilish sharoitida olib borish; ta’lim faoliyati uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazalarini yaratish va ulardan foydalanish hamda ulardan foydalanish imkoniyatini ta’minlashdir[3, 97 b, 2009].

Biologiya fanini o‘qitish jarayonida virtual labaratoriyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

- o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish (elektron darsliklar, elektron ko‘rinishdagi ma’ruza matnlari, ma’ruza taqdimotlari, ma’ruza namoyishlari);
- matematik bog'liqliklarni (elektron jadvallar, maxsus matematik paketlar) hisoblash va vizualizatsiya qilish;
- o‘quv jismoniy tadqiqotlarini (o‘quv kompyuter simulyatorlari) o‘tkazish qobiliyati va ko‘nikmalarini shakllantirish;
- talabalarning ta’lim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- masofaviy ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish[4, 125 p, 2020].

Virtual laboratoriya aslida matematik model bo‘yicha qisman yoki to‘liq tajriba o‘tkazish imkonini beradigan, ulardan foydalanish bo‘yicha hujjatlar to‘plami bilan birlashtirilgan dasturlar yoki apparat va dasturiy ta’minot majmuasidir.

Virtual laboratoriyalardan foydalanish bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarga nazariy materialni mazmunan tushunib yetish va mustahkamlash, ma’lum bir mavzu bo‘yicha bilimlarni nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini masofaviy ta’lim muhitida kasbiy tayyorlash jarayonida bir qator dasturiy vosiytalardan foydalanish mumkin. Bunday dasturlar qatoriga *Crocodile Clips Ltd,Crocodile Physics, Crocodile Chemistry,Crocodile Technology dasturi, Crocodile ICT* dasturini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin[5, 67 b, 2019].

Uzluksiz ta’lim muhitida talabalarni virtual labaratoriya asosida biologia fanini o‘qitishda ular tafakkurini rivojlantirish jarayonida ma’lum bir pedagogik shartlar yaratish asosida amalga oshirilishi mumkin. Virtual labaratoriyalar mavjud holatdagi biologia fanini bilan bog‘liq muammolar va kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini samarali kasbiy faoliyatga tayyorlashda tegishli sharoitlarni izlash bilan belgilanadi. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini biologia fanini o‘qitish asosida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni yetarli pedagogik shart-sharoitlari aniqlash joizdir.

Masofaviy ta’lim muhitida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarni kasbiy shakllantirish jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanishda pedagogik shartlarga maksimal mustaqillikni rivojlantirish mazmuniga yo‘naltirilgan bo‘lishi, biologiya fani grafikasini huquqiy qo‘llab-quvvatlashni kiritish lozim. Pedagogik sharoitlarga esa:

– talabalarni virtual labarotoriyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish, biologik tushunchalarining tegishli fanlar bilan integratsiyasi va o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash, takrorlanishini bartaraf etish;

– talabalarni virtual labarotoriyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqish, mavzu sohasini jadal rivojlantirish va ularni qisqa muddatda muammoning hozirgi holatiga moslashtirish, yaxlitlik va sifatga zarar yetkazmasdan axborot xavfsizligini ta’minlash imkoniyatlarini taqdim etish;

– talabalarni virtual labarotoriyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish orqali raqobatdoshligini ta’minlaydigan asosiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantiradigan innovatsion ta’lim imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish kabilarni kiritish lozim[4, 126 p, 2020].

Talabalar virtual labaratoriyalar zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida labaratoriya ishlarining bajarilishiga keng yo‘l ochadi.Bundan tashqari, virtual labarotoriyalarning yaratilishi natijasida labaratoriya sharoitida o‘tkazilishi mumkin bo‘lmagan (zaharli moddalar, kamyob moddalar) ishlarni bajarib ko‘rsatish imkonini beradi. Virtual labarotoriyalardan amaliy va labaratoriya ishlarini

bajarishda foydalanish uchun o‘quv materiallarning ochib berishga va o‘zlashtirish ko‘rsatgichini oshirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g’risidagi” PQ-1533-sonli Qarori, 2011 yil 20 may. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 22-23-son, 226-modda.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida»gi PQ-2909 sonli qarori, 2017 yil 20 aprel, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda

3. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.: 2009 y., 184 b.

4.Rakhmatov U.E., Shakhmurova G.A. Methodical Instructions of Improving Biology Teachers’ Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks) //Eastern European Scientific Journal. – №3. –2020. – P. 123 –16. ISSN 2199 –7977.

5. Xamidov V.S.Ta’lim tizimida keskin burilishga sabab bo‘lgan 4 dastur haqida. Toshkent.: 2019 y., 160 b.

EYRI TENGLAMASI UCHUN YULDUZSIMON METRIK GRAFDA δ' TIPIDAGI ULANISH SHARTLI KOSHI MASALASI.

Sobirov Z.A. *- dots,f.-m. f.n, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU,*

Abidova M.S.*- Mat. f. 2-kurs magistrantiMirzo Ulug‘bek O‘zMU*

Mazkur ishda biz uchta yarim tog‘ri chiziqni bir nuqtada birlashtirishdan hosil bo‘lgan ochiq yulduzsimon metrik grafda chiziqli Korteveg-de Vriz tenglamasi uchun Koshi masalasini tadqiq qildik.

Graf qirralarini B_1, B_2, B_3 bilan belgilaymiz. B_1 qirrada x_1 koordinatani $-\infty$ dan 0 gacha, B_2 va B_3 qirralarda, mos ravishda, x_2 va x_3 koordinatalari 0 dan $+\infty$ gacha aniqlaymiz, bunda har bir qirrada 0 koordinata graf uchiga mos keladi.

Har bir qirrada quyidagi Eyri tipidagi tenglama berilgan bo‘lsin

$$\left(\frac{\partial}{\partial t}+\sigma\frac{\partial^3}{\partial x_k^3}\right)u_k\left(x_k,t\right)=f_k\left(x,t\right),\quad t>0, x_k\in B_k. \qquad (1)$$

Bundan keyingi belgilashlarda qulaylik uchun x_k (k=1,2,3) o‘rniga x ishlatiladi.

Ma’lumki, Eyri tenglamasi uchun qo‘yiladigan masalada chegaraviy shartlar simmetriya xossasiga ega emas, ya’ni, intervalning o‘ng va chap oxirlarida bir xil sondagi chegaraviy shartlar qo‘yilmaydi [1,2]. Shu sababli biz 2 ta holatni qaraymiz. Bular, to‘g‘ri to‘lqin tarqalishini tavsiflovchi $\sigma=1$ holati va teskari yo‘nalishda to‘lqin tarqalishini tavsiflovchi $\sigma=-1$ holati. Har ikkala holatda ham masala yechiminining mavjudligi potensiallar usuli yordamida isbotlanadi.

Teskari yo‘nalishda to‘lqin tarqalishi. $\sigma=-1$ holatda chegaralangan intervalda masala qo‘yilganda 3 ta chegaraviy shart qo‘yiladi: ikkitasi x intervalning chap uchida va bittasi o‘ng uchida [1,2,3]. Shundan kelib chiqib,biz graf uchida 5 ta ulanish shartlarini qo‘yishimiz kerak. Biz bu shartlarni quyidagicha aniqlaymiz:

$$u_1\left(0,t\right)=a_2u_2(0,t)+a_3u_3(0,t) \qquad (2)$$

$$\frac{\partial u_1}{\partial x}(0,t)=b_2\frac{\partial u_2}{\partial x}(0,t)=b_3\frac{\partial u_3}{\partial x}(0,t)\ , \qquad (3)$$

$$\frac{\partial^2 u_1}{\partial x^2}(0,t)=a_2^{-1}\frac{\partial^2 u_2}{\partial x^2}(0,t)=a_3^{-1}\frac{\partial^2 u_3}{\partial x^2}(0,t),\ t\geq 0, \qquad (4)$$

bu yerda $a_k, b_k, k=2,3$ lar nolga teng bo‘lmagan musbat o‘zgarmaslar. Bu shartlar [1,3] ishlardagida qaralgan δ tipidagi ulanish shartlaridan farq qilib, biz bu shartlarni δ' tipidagi ulanish shartlari deb ataymiz.

Boshlang‘ich shartlarni quyidagicha aniqlaymiz

$$u_k(x,0)=u_{0k}(x),\qquad x\in\bar{B}_k(k=1,2,3), \qquad (5)$$

bunda $u_{0,k}$ funksiyalar yetarlicha silliq, chegaralangan, absolyut integrallanuvchi funksiyalar bo‘lib, (2)-(4) ulanish shartlarini qanoatlantirsin deb talab qilamiz.

To‘g‘ri yo‘nalishda to‘lqin tarqalishini. $\sigma=1$ holat uchun bizga graf uchida 4 ta shart kerak bo‘ladi ([1] ga qarang).

$$u_1\left(0,t\right)=\alpha_2u_2(0,t)+\alpha_3u_3(0,t) \qquad (6)$$

$$\left.\frac{\partial u_1}{\partial x}\right|_{x=0} = \beta_2 \left.\frac{\partial u_2}{\partial x}\right|_{x=0} + \beta_3 \left.\frac{\partial u_3}{\partial x}\right|_{x=0} \qquad (7)$$

$$\left.\frac{\partial^2 u_1}{\partial x^2}\right|_{x=0} = \alpha_2^{-1} \left.\frac{\partial^2 u_2}{\partial x^2}\right|_{x=0} = \alpha_3^{-1} \left.\frac{\partial^2 u_3}{\partial x^2}\right|_{x=0}, \ t \geq 0, \qquad (8)$$

bunda $\alpha_2, \alpha_3, \beta_2, \beta_3$ lar musbat o‘zgarmas sonlar.

Boshlang‘ich shartlar quyidagicha aniqlanadi

$$u_k(x,0) = u_{0k}(x), \qquad x \in B_k (k = 1,2,3), \qquad (9)$$

bunda $u_{0,k}$ funksiyalar yetarlicha silliq, chegaralangan, absolyut integrallanuvchi funksiyalar bo‘lib, (6)-(8) ulanish shartlarini qanoatlantirsin deb talab qilamiz.

Har ikkala masala yechimi yagonaligi haqidagi teorema energiya integrallari usuli yordamida isbotlangan. Masalalar yechimlari mavjudligini isbotlashda potensiallar usulidan foydalanilgan.

Lemma 1. $b_2^{-2} + b_3^{-2} \leq 1$bo‘lsin. U holda $\sigma = -1$ da (1)-(5) masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir.

Lemma 2. $\beta_2^2 + \beta_3^2 \leq 1$ bo‘lsin. U holda $\sigma = 1$ da (6)-(9) masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir.

Har ikkala holatda ham masala yechimi potensiallar usuli yordamida qurilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Z.A. Sobirov, H. Uecker, M.I. Akhmedov. Exact solutions of the Cauchy problem for the linearized KdV equations on metric star graphs. Uzbek Mathematical Journal, 2015, №3, pp. 143-154.
2. Т.Д.Джураев. Краевые задачи для уравнений смешанного и смешанно-составного типов. “Фан”, Ташкент, 1979.
3. M.I. Akhmedov, Z.A. Sobirov, M.R. Eshimbetov. Initial boundary value problem for the linearized KdV equation on simple metric star graph. Uzbek Mathematical Journal, 2017, №4, pp. 13-20.

IKOSAEDR VA DODEKAEDR QIRRALARIDA QUVISH-QOCHISH O‘YINI


Xolboyev A.G‘. *-Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, PhD*

Ushbu ishda R^3 fazodagi muntazam ko‘pyoqliklar, ikosaedr va dodekaedr qirralarida quvish-qochish o‘yini qaraladi. O‘yinda ko‘pyoqliklarning qirralari bo‘ylab harakatlanadigan ikki o‘yinchi qatnashadi: $P_1, P_2, \dots, P_m$ nuqtalarning harakatini boshqaradigan quvuvchilar jamoasi **P** va Q nuqtaning harakatini boshqaradigan qochuvchi [1], [2], [3], [5], [6]. Barcha o‘yinchilarning maksimal tezligi va ko‘pyoqlikning qirralari uzunligi1 ga teng.Quvish-qochish o‘yinida $N(G)$natural son aniqlaylik [1], [6], [8]. O‘yin **P** tomon foydasiga hal bo‘ladigan m sonlaridan eng kichigi $N(G)$ deb belgilansin va bu quyidagi xossalarga ega:

a) agar $m \geq N(G)$ bo‘lsa, o‘yin **P** quvuvchi jamoa foydasiga hal bo‘ladi;

b) agar $m < N(G)$ bo‘lsa, o‘yin Q qochuvchi foydasiga hal bo‘ladi.

$I-$ikosaedr va $D-$dodekaedr bo‘lganda $N(I), N(D)$ sonlar [1], [4], [8] ishlarda topilgan (1-chizma).



1-chizma

Barcha nuqtalarning maksimal tezligi 1 ga teng bo‘lganda $N(I)=3, N(D)=3$ ekanligi [1] ishda isbotlangan.

Endi $I-$ikosaedr va $D-$dodekaedr qirralarida quyidagi dinamik o‘yinni qaraymiz. $I-$ikosaedr va $D-$dodekaedrning kamida nechta qirrasini olib tashlasak qochuvchini tutadigan quvuvchilarning eng kam soni ikkiga teng bo‘ladi.

Aytaylik $\hat{I}$ va $\hat{D}-$ikosaedr va dodekadrning ixtiyoriy bitta qirrasini olib tashlangandan hosil bo‘lgan grafi bo‘lsin.

Teorema. $N\left(\hat{I}\right)=2,\ N\left(\hat{D}\right)=2$.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azamov A. A., Kuchkarov A. Sh., Holboyev A. G. The pursuit-evasion game on the 1-skeleton graph of regular polyhedron. I, II. *Automation and Remote Control*, (78) 4, 2017. pp. 754-761, (80) 1, 2019. pp. 164-170.

2. Bollodas B., Kun G., Leader I. Cops and robbers in a random graph. Preprint, 2011.

3. Bonato A., Nowakowski R. J. The game of cops and robbers on graphs, Student Mathematical Library, Vol. 61. American Mathematical Society, Providence, RI, 2011.

4. Ibragimov G., Holboyev A., Ibaydullaev T., Pansera B. A. Pursuit differential game on the 1-skeleton graph of the icosahedron, *Mathematics* 2022, 10, 1435. https://doi.org/10.3390/ math10091435.

5. Nowakowski R. J.Unsolved problems in combinatorial games. *Games of no chance, 5, pp.* 125-168, Math. Sci. Res. Inst. Publ., 70, *Cambridge Univ. Press, Cambridge*,2019.

6. Азамов А.А., Ибайдуллаев Т.Т. Дифференциальная игра сближения-уклонения с медленными преследователями на графе ребер симплекса. I.*Математическая Теория Игр и её Приложения*, (12) 4, 2020. стр. 7-23.

7. Азамов А. А., Кучкаров, А. Ш., Холбоев А. Г. Игра преследования-убегания на реберном остове правильных многогранников III. *Математическая Теория Игр и её Приложения,* (11) 4, 2019. С. 5-23.

8. Азамов А. А., Кучкаров, А. Ш., Холбоев А. Г. Игра преследования-убегания на реберном остове правильных многогранников при наличии "медленных", преследователей. *UzbekmathematicalJournal* 1, 2017. С. 140-145.

РАЗРЕШИМОСТЬ НЕЛОКАЛЬНОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ЧЕТВЕРТОГО ПОРЯДКА В ПРЯМОУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ

Бекиев А.Б., Казакбаева К.Б., Бекиева А.А. –

Каракалпакский государственный университет

В данной работе рассмотрены краевые задачи для уравнения четвертого порядка с нелокальными условиями. Корректность краевых задач для уравнений с частными производными четвертого порядка устанавливается доказательством существования и единственности решения.

Постановка задачи. В области $\Omega = \{(x,t): 0 < x < 1,\ 0 < t < \beta\}$ рассмотрим уравнение

$$Lu \equiv u_{tt}(x,t) + u_t(x,t) + u_{xxxx}(x,t) = 0. \qquad (1)$$

Задача 1. Найти в области Ω функцию $u(x,t)$, удовлетворяющую условиям

$$u(x,t)\in C_{x,t}^{3,1}(\bar{\Omega})\bigcap C_{x,t}^{4,2}(\Omega), \tag{2}$$

$$Lu\equiv 0,\ (x,t)\in\Omega, \tag{3}$$

$$u(x,0)=\varphi(x),\ u_t(x,0)=\psi(x),\ 0\le x\le 1, \tag{4}$$

$$u(0,t)=u(1,t),\ u_x(0,t)=0,\ u_{xx}(0,t)=u_{xx}(1,t),\ u_{xxx}(0,t)=0,\ 0\le t\le\beta, \tag{5}$$

где $\varphi(x),\psi(x)$ - заданные достаточно гладкие функции, причем $\varphi(0)=\varphi(1),\psi(0)=\psi(1),\varphi'(0)=0$.

Система функций

$$X_0(x)=1,\ X_{2k-1}(x)=\cos\lambda_k x,\ X_{2k}(x)=x\sin\lambda_k x,\quad \lambda_k=2k\pi,\ k=1,2,... \tag{6}$$

и

$$Y_0(x)=2(1-x),\ Y_{2k-1}(x)=4(1-x)\cos\lambda_k x,\ Y_{2k}(x)=4\sin\lambda_k x,\quad \lambda_k=2k\pi,\ k=1,2,... \tag{7}$$

биортогонально и образуют базис Рисса в $L_2[0,1]$ [Мегралиев:166-182, Сабитов: 71-85].

Решение задачи (2)-(5) найдена в виде ряда составленной из базисных функций Рисса (6). Единственность решения задачи вытекает из полнота ортонормированных систем (7).

Теорема 1. Если выполняются условия $\varphi(x)\in C^{(6)}[0,1]$, $\varphi^{(2i)}(0)=\varphi^{(2i)}(1)$, $\varphi^{(2i+1)}(0)=0, i=0,1,2$, $\psi(x)\in C^{(4)}[0,1]$, $\psi^{(2i)}(0)=\psi^{(2i)}(1)$, $\psi^{(2i+1)}(0)=0, i=0,1,$ то, существует единственное решение задачи (2)-(5).

Устойчивость решения. Введем следующие нормы:

$$\|u(x,t)\|_{L_2[0,1]}=\sqrt{\int_0^1|u(x,t)|^2\,dx},\ \|u(x,t)\|_{C(\bar{\Omega})}=\max_{\bar{\Omega}}|u(x,t)|.$$

Теорема 2. Пусть выполнены условия теоремы 1, тогда для решения задачи 1 справедливы оценки

$$\|u(x,t)\|_{L_2} \le c_1\left(\|\varphi\|_{W_2^1} + \|\psi\|_{W_2^0}\right), \ \ \|u(x,t)\|_{C(\bar{\Omega})} \le c_2\left(\|\varphi\|_{W_2^2} + \|\psi\|_{W_2^0}\right).$$

ЛИТЕРАТУРА

1. Мегралиев Я. Т., Велиева Б. К. Обратная краевая задача для линеаризованного уравнения Бенни-Люка с нелокальными условиями // Вестн. Удмуртск. ун-та. Матем. Мех. Компьют. науки, 2019, том 29, выпуск 2, с. 166–182.
2. Сабитов К.Б., Мартемьянова Н. В. Нелокальная обратная задача для уравнения смешанного типа // Известия вузов. Математика. 2011. № 2. С. 71–85.

BÓLSHEK TÁRTIPLI TUWÍNDÍ HÁM INTEGRAL HAQQÍNDA

Otarova J.A.- *f.m.i.k, docent,*

Uzaqbaeva D.E.-*1 kurs magistrant*

Berdaq atındaǵı QMU, Nókis qalası

Bólshek tártipli integrodifferencialdıń matematikalıq apparatı waqıt hám keńislik boyınsha lokal emes qásiyetlerdi esapqa alıw zárúr bolǵan sistemalardaǵı processlerdi xarakteristikalaw imkaniyatın beredi. Bólshek tuwındıların yad (waqıt boyınsha lokal emes) hám keńisliktegi korrelyaciya (koordinatalarda lokal emes) tásirin esapqa alıw usılı retinde kórsetiwi olardıń tábiyattanıwda keń qollanılıwına alıp keldi.

Házirgi waqıtta izertlewshilerdiń bólshek esabına itibarı sezilerli dárejede kóbeymekte. Bul, birinshi náwbette, fraktal ortalıqta júz beretuǵın fizikalıq hám ximiyalıq processlerdiń keń klasın xarakteristikalawda, ekonomikalıq jáne social-biologiyalıq processlerdi matematikalıq modellestiriwde bólshek-tártipli differencialdıń kóplegen nátiyjeli qollanılıwı menen baylanıslı.

Bólshek tártipli differensiallıq teńlemeler fizika, ximiya, biologiya, ekonomika, sociologiya hám basqa zamanagóy tábiy hám gumanitar pánlerdiń túrli tarawlarında júzege keletuǵın kóplegen matematikalıq modeller ushın tiykar bolıp xızmet etedi. Bul jaǵday, házirgi waqıtta zamanagóy matematikanıń jedel rawajlanıp atırǵan

tarawlarınan birine aylanǵan bólshek tártipli differensiallıq teńlemeler hám differensiallıq teńlemeler sistemaları ushın shegaralıq máseleler teoriyasınıń keń rawajlanıwına alıp keldi.

Bólshek tártipli integrallar hám tuwındılar bolǵan baslanǵısh-shegaralıq máseleler [1],[4] jumıslarda úyrenilgen.

1-anıqlama. $0<\alpha=const<1$ hám $\varphi(x)$ bolsa $[a,b]$ segmentte anıqlanǵan funkciya bolsın [1]. Mına

$$D_{ax}^{\alpha}\varphi(x)\equiv\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{d}{dx}\int_a^x\frac{\varphi(t)dt}{(x-t)^{\alpha}},\qquad 0<\alpha<1,$$
$$D_{xb}^{\alpha}\varphi(x)\equiv-\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{d}{dx}\int_x^b\frac{\varphi(t)dt}{(x-t)^{\alpha}},\qquad 0<\alpha<1 \tag{1}$$

kórinisindegi ańlatpalar $\varphi(x)$ funkciyanıń Liuvill mánisindegi α (bólshek) tártipli tuwındıları delinedi.

1-lemma. Eger $\alpha\in(0,1)$ hám $\varphi(x)\in AC([a,b])$ bolsa, $[a,b]$ segmenttiń derlik barlıq noqatlarında $\varphi(x)$ funkciyanıń α (bólshek) tártipli tuwındıları bar bolıp, tómendegi formulalar orınlı boladı:

$$D_{ax}^{\alpha}\varphi(x)\equiv\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\left[\frac{\varphi(a)}{(x-a)^{\alpha}}+\int_a^x\frac{\varphi'(t)dt}{(x-t)^{\alpha}}\right],\qquad 0<\alpha<1,$$
$$D_{xb}^{\alpha}\varphi(x)\equiv-\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\left[\frac{\varphi(b)}{(b-x)^{\alpha}}-\int_x^b\frac{\varphi'(t)dt}{(t-x)^{\alpha}}\right],\qquad 0<\alpha<1$$

1-misal. $\varphi(x)=x^n$ bolsın. (1) formuladan paydalanıp esaplaymız [2]:

$$D_{ax}^{\alpha}\varphi(x)\equiv\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{d}{dx}\int_a^x\frac{t^n dt}{(x-t)^{\alpha}}=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{d}{dx}\int_a^x t^n(x-t)^{-\alpha}\,dt=$$
$$=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{d}{dx}\left(x^{-\alpha}\int_a^x t^n\left(1-\frac{t}{x}\right)^{-\alpha}dt\right)$$

bul jerde, integral ózgeriwshisin $\frac{t}{x}=u$ formula menen almastırsaq, tómendegi teńlik kelip shıǵadı:

$$D_{0x}^{\alpha}\varphi(x)=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{d}{dx}\left(x^{n-\alpha+1}\right)\int_0^1 u^n(1-u)^{-\alpha}\,du=\frac{(n-\alpha+1)x^{n-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^1 u^n(1-u)^{-\alpha}\,du$$

bul jerde, $\int_0^1 u^n(1-u)^{-\alpha}\,du$ ańlatpası $B(n+1,1-\alpha)$ nı beredi, bunnan

$$D_{0x}^{\alpha}\varphi(x)=\frac{(n-\alpha+1)x^{n-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)}B(n+1,1-\alpha)=\frac{(n-\alpha+1)x^{n-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{\Gamma(n+1)\Gamma(1-\alpha)}{\Gamma(n-\alpha+2)}=$$

$$=\frac{(n-\alpha+1)x^{n-\alpha}\Gamma(n+1)}{(n-\alpha+1)\Gamma(n-\alpha+1)}=\frac{\Gamma(n+1)}{\Gamma(n-\alpha+1)}x^{n-\alpha}$$

formulası kelip shıǵadı.

2-anıqlama. α - oń bólshek san hám $\varphi(x)\in L_1(a,b)(a<b<+\infty)$ bolsın.

$$D_{ax}^{-\alpha}\varphi(x)\equiv\frac{1}{\Gamma(\alpha)}\int_a^x(x-t)^{\alpha-1}\varphi(t)\,dt,\alpha>0,$$
$$D_{xb}^{-\alpha}\varphi(x)\equiv\frac{1}{\Gamma(\alpha)}\int_x^b(t-x)^{\alpha-1}\varphi(t)\,dt,\alpha>0 \qquad (2)$$

kórinisindegi ańlatpalar Riman-Liuvill mánisindegi α (bólshek) tártipli integrallar delinedi.

(2) formuladan belgili, $\alpha=n\in N$ bolǵanda $D_{ax}^{-\alpha}\varphi(x)$ hám $D_{xb}^{-\alpha}\varphi(x)$ belgiler $\varphi(x)$ funkciyanıń n (natural) eseli integralın anıqlaydı.

2-mısal. $\varphi(x)=x^n$ bolsın. (2) formuladan paydalanıp esaplaymız:

$$D_{ax}^{-\alpha}\varphi(x)\equiv\frac{1}{\Gamma(\alpha)}\int_a^x(x-t)^{\alpha-1}t^n dt=\frac{1}{\Gamma(\alpha)}\int_a^x\left[x\left(1-\frac{t}{x}\right)\right]^{\alpha-1}t^n dt=$$

$$=\frac{x^{\alpha-1}}{\Gamma(\alpha)}\int_a^x\left[\left(1-\frac{t}{x}\right)\right]^{\alpha-1}t^n dt$$

bul jerde, integral ózgeriwshisin $\frac{t}{x}=u$ formula menen almastıramız [3]:

$$D_{ax}^{-\alpha}\varphi(x)\equiv\frac{x^{\alpha-1}}{\Gamma(\alpha)}\int_{\frac{a}{x}}^{1}(1-u)^{\alpha-1}u^n x^{n+1}du=\frac{x^{\alpha+n}}{\Gamma(\alpha)}\int_{\frac{a}{x}}^{1}(1-u)^{\alpha-1}u^n du$$

bul jerde, $\int_0^1 u^n(1-u)^{-\alpha}du$ ańlatpası $B(n+1,\alpha)$ nı beredi, bunnan

$$D_{ax}^{-\alpha}\varphi(x)=\frac{x^{\alpha+n}}{\Gamma(\alpha)}B(n+1,\alpha)=\frac{x^{\alpha+n}}{\Gamma(\alpha)}\frac{\Gamma(n+1)\Gamma(\alpha)}{\Gamma(\alpha+n+1)}=\frac{\Gamma(n+1)}{\Gamma(\alpha+n+1)}x^{\alpha+n}$$

formulası kelip shıǵadı.

3-mısal. $\varphi(x)=1$ funkciyasınıń $\frac{1}{2}$ -tártipli tuwındısın esaplaymız. Bunıń ushın (1) formuladan paydalansaq,

$$D^{\frac{1}{2}}(1)=\frac{1}{\Gamma\left(\frac{1}{2}\right)}\frac{d}{dx}\int_0^x\frac{1}{(x-t)\frac{1}{2}}dt,$$

ańlatpa payda boladı. Bul integraldı esaplasaq:

$$D^{\frac{1}{2}}(1)==-\frac{1}{\sqrt{\pi}}\frac{d}{dx}\left(-2\sqrt{x-t}\right)\Big|_{t=0}^{t=x}=$$

$$=\frac{-1}{\sqrt{\pi}}\frac{d}{dx}\int_0^x\left(\frac{d(x-t)}{\sqrt{x-t}}\right)dt=$$

$$=\frac{1}{\sqrt{\pi}}\frac{d}{dx}\left(2\sqrt{x}\right)=\frac{1}{\sqrt{\pi}}\frac{1}{\sqrt{x}}=\frac{1}{\sqrt{\pi x}}.$$

4-mısal. $\varphi(x)=x\sqrt{x}$ funkciyasınıń $\frac{3}{2}$ -tártipli integralın esaplaymız. (2) formuladan paydalanamız,

$$D_{0x}^{-\frac{3}{2}}\left(x\sqrt{x}\right)=\frac{1}{\Gamma(\alpha)}\int_0^x(x-t)^{\frac{3}{2}}t\sqrt{t}dt,$$

Integral ózgeriwshisin $\sqrt{x-t}=u$ formula menen almastıramız:

$$D_{0x}^{-\frac{3}{2}}\left(x\sqrt{x}\right)=-\frac{1}{\sqrt{\pi}}\int_{\sqrt{x}}^{0}\sqrt{\left(x-u^2\right)^3}d\left(x-u^2\right)=-\frac{1}{\sqrt{\pi}}\left(\frac{2}{5}\sqrt{\left(x-u^2\right)^5}\right)\Bigg|_{u=\sqrt{x}}^{u=0}=$$

$$=-\frac{2}{5\sqrt{\pi}}\sqrt{x^5}=-\frac{2x^2}{5}\sqrt{\frac{x}{\pi}}.$$

ÁDEBIYATLAR

1. Самко С.Г. , Килбас А. А. , Маричев О.И. Интегралы и производные дробного порядка и некоторые их приложения. -Минск: Наука и техника, 1987. -688 с.
2. Бейтмен Г., Эрдейи А. Высшие трансцендентные функции. Гииергеометрическая функция. Функция Лежандра. -М.: Наука, 1965. -296 с.
3. Бейтмен Г., Эрдейи А. Высшие трансцендентные функции. Функция Бесселя. Функция параболического цилиндра. Ортогональние многочлены. -М.: Наука, 1966. -296 с.
4. Быков Я.В. О некоторых задачах теории интегро-дифференциальних уравнений. - Фрунзе, 1957. -328 с.

ARALIQTAN OQITIWDI SHÓLKEMLESTIRIWDE BULTLI TEXNOLOGIYALARINAN PAYDALANIWDIŃ GEYPARA MÁSELELERI

Mustafaeva R. *- f.-m.i.k.,doc.,*

Tursınbekova I.J. *–assistent*

Berdaq atındağı QMU, Nókis qalası.

Búgingi kúnde kompyuter texnologiyaları jámiyetke kúshli tásir etedi hám olar insan iskerliginiń barlıq tarawılarına kirip, onıń xabardarlığın, yağnıy kompetentligin jaqsılaydı hám kásibı boyınsha, bilim iyelewde, óz ara qarım-qatnas jasawda kóplegen jańa múmkinshilikler jaratadı. Sonıń menen birge bilimlendiriw tarawı da bunnan tısqarı emes, sebebi zamanagóy oqıtıwshı informaciyalıq texnologiyalardıń jetiskenliklerinen paydalanbastan óz iskerligin ámelge asıra almaydı hám óz jumısında túrli informaciya-kommunikaciyalıq texnologiyalarınan (IKT) qurallarınan aktiv paydalanadı: chatlar, messenjerler, forum, bloglar, elektron pochta, telekonferenciyalar, vebinarlar hám basqada kóplegen ámeldegi resursları.

Házirgi waqıtta tálimdi rawajlandırıwdıń kóplegen innovaciyalıq baǵdarları arasında IKT paydalanıw áhmiyetli orındı iyeleydi. Bilim alıw - bul shaxstı

rawajlandırıw jolı bolıp tabıladı hám ol ushın zamanagóy informaciyalıq texnologiyaları eń kóp múmkinshiliklerdi usınıs etedi. Zamanagóy oqıtıwshınıń tiykarǵı wazıypası – informaciyanıń sheksiz kóp muǵdarda usınıwında bilim alıwshılarǵa durıs baǵdar tabıwǵa járdem beriw bolıp tabıladı.

Búgingi kúnde oqıtıwshınıń jumısın IKTdan paydalanbay kóz aldımızǵa keltiriw múmkin emes, sebebi olar tálim sapasın jaqsılawǵa járdem beredi, tálim alıw múmkinshiliklerin keńeytedi, informaciyalıq keńisliginde durıs baǵdar alıwshı shaxstıń rawajlanıwın támiyinlewge xızmet etedi.

Elektron tálim – bul tálim tarawındaǵı jańalıq emes bolıp qaldı, sebebi COVID-19 pandemiya dáwiri, ekologiyalıq túrli keskin ózgerisleri (kataklizmler) kórsetkeni sıyaqlı, biz dástúriy tálimnen, aralıqtan oqıtıw tálimge ótiwge mudamı tayın bolıwımız tiyis, yaǵnıy búgingi kúnde tálim processin IKT arqalı onlayn tárizde shólkemlestiriw – bul dáwir talabı bolıp esaplanadı.

Zamanagóy informaciyalıq texnologiyalardıń rawajlanıwınıń eń bir nátiyjeli baǵdarlarınıń biri bultlı texnologiyaları (Cloudcomputing) bolıp esaplanadı. Bul da internet xızmetleriniń bir túri bolıp bunda, máseleń, Google xızmetlerinen oqıw processinde aktiv paydalanıwǵa boladı. Sebebi olardan paydalanıw ushın arnawlı programmalıq támiyinlewdiń keregi joq, bunda tek ǵana Google saytınan paydalanıwshılar dizimnen (registratsiyadan) ótiwı jetkilikli boladı, bunnan soń bul sayttıń resursları menen islesiwge ruxsat beriledi [Джумабаев: 70].

Tálim processinde paydalanıw múmkin bolgan Google xızmet túrlerin keltirip ótemiz [Шмотьев: 4, Джумабаев: 70].

Google Dokumentı (hújjetler) - hújjetlerdi jaratıw hám olar ústinde bilim alıwshılar birgelikte jumıs islewge arnalǵan xızmet túri. Bunda birgelikte islep atırǵan hújjetke kiriw ushın ruxsat (dostup) alıwdıń bir neshe islew tártiplerine iye: hújjetti tek kórip shıǵıw, kórip shıǵıw hám túsindirme beriw, óz pikirin bildiriw hám hújjet penen tolıq redaktorlaw jumısların alıp barıw.

Google - Tablica - bul bir, eki yamasa onnan kóp paydalanıwshılar menen kesteler jaratıw, formatlaw hám ol ústinde ekinshi bir paydalanıwshılar menen birgelikte jumıs islewge imkaniyat beretuǵın onlayn - qosımsha xızmeti bolıp esaplanadı.

- Google Formı - bul óz ara túrli sorawlar, viktorinalar, testler ótkeriw imkaniyatın usınıwshı onlayn xızmet túri bolıp esaplanadı. Alınǵan nátiyjelerdi avtomatlastırılǵan túrde bul xızmetti tekseredi, analiz jasaydı hám bul múmkinshiligi onıń tiykarǵı abzallıǵı bolıp esaplanadı.

- Google Prezentaciyası - onlayn qosımsha bolıp, bunda prezentaciyalardı jaratıw hám redaktorlaw ámellerin orınlawǵa boladı, sonıń menen birge, basqa paydalanıwshılar menen bir waqıtta birgelikte jumıs islesiwge de múmkin. Birgelikte prezentaciyalar jaratıw ushın eń qolaylı xızmet túri bolıp esaplanadı.

- Google Disk - fayllardı saqlaw ushın arnalǵan «bultlı» saqlaǵısh. Bul hár qıylı húJjetlerdi saqlaw ushın mólsherlengen saqlaǵısh bolıp hám hár bir paydalanıwshi ushın bul "bultan" 15 GB orın ajıratıp beredi.

-Google Translate - onlayn awdarmashı bolıp hám kóplegen shet el tillerden oqıw materialların ana tilge hám kerisinshe awdarmalawdı támiyinleydi.

- Google Sites - bul xızmeti video, súwretler hám húJjetlerdi jayǵastırıw múmkinshiligin beredi. Sonıń menen birge, bilim alıwshılar ushın birden-bir internet keńisligin shólkemlestiriwi múmkin, bunda bilim alıwshılar bir biri menen maǵlıwmatlar almasadı, ózleriniń jeke web-saytların jaratıwı múmkin, web-dizayn tarawı boyınsha kónlikpelerine iye boladı.

- Google Blogger – bunda blog arqalı oqıtıw ushın, oqıw iskerligin sonday qılıp shólkemlestiriledi, bir tárepden oqıtıwshı bul pánin ózlestirip atırǵan barlıq bilim alıwshılar menen islesedi, ekinshi tárepten, hár bir bilim alıwshı ózin qızıqtıratuǵın sorawdı beriwi múmkin, bul sorawǵa topardıń qálegen aǵzası juwap beriwi de múmkin.

Tálim orınlarında tálim sapasın asırıw ushın joqarıda atap ótilgen xızmetlerdiń derlik barlığınan paydalanıwıńız múmkin. Olar oqıtıwshı hám bilim alıwshılar menen óz-ara onlayn islewge hám topardaǵı mashqalalardı birgelikte sheshiwge

múmkinshilik beredi. Oqıtıwshı sabaqtan aldın bilim alıwshılarǵa oqıw materialların usınıwı da múmkin. Joqarıda qaralǵan xızmet túrleri bilim alıwshılar hám oqıtıwshı ortasındaǵı baylanıstı ańsatlastıradı, jumıs islewdıń dóretiwshilik sheńberin jaratadı hám óz betinshe jumıs ushın da qolaylı bolıp esaplanadı.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1.Джумаев М. Использование сервисов Google для совместной работы студентов и преподавателя. //Информационные системы и технологии : сборник тезисов докладов 56-й научной конференции аспирантов, магистрантов и студентов, Минск, 18–20 мая 2020 г. – Минск : БГУИР, 2020. – 83 с. (70-71). - https://libeldoc.bsuir.by/handle/123456789/39461

2. Шмотьев Ю.А. Возможности использования Google-сервисов в образовании // Электронный научный журнал «Наука и перспективы». – № 3. – 2017. – https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-ispolzovaniya-google-servisov-v-obrazovanii.

3. www.google.com

DÁSTURIY GEOGRAFIYALIQ ATAMALAR

Seitniyazov Q.M. *- g.i.k., docent,*

Madreymov D. Qalbaev A. *– NMPI talabasi,*

Ájiniyaz atindaǵi NMPI, Nókis qalasi

Dásturiy atamalarǵa erte zamannanн qollanilip kiyatirǵan hám jergilikli tilge kirgen geografiyaliq atamalardi aytiwǵa boladi. Olar arasinda belgili bir topardi payda etedi. Belgili ilimpaz – toponimist X. Xasanovtiń aytiwinsha, bunday atamalardiń jaziliwinda hám aytiliwinda ayirmashiliq joq, olar barliq waqitta baspada, sabaqliqlarda hám kitaplarda, kartoshkalarda bir formada jaziladi. Buǵan missal retinde jergilikli toponimler hám geografiyaliq atamalardi ayitsa boladi. [6.]

Bizlerge belgili bolǵan atamalar Buxara, Samarkand, Xorezm, FerǵanaÓzbekstan respublikasi toponimlerinde birneshshe juz jillar dawaminda áiyemgi tariyxiy-ilimiy dereklerde, kórkem ádebiyatlarda paydalanilip kelinbekte. Bul atamalar xalqimizǵa tek ǵana ótmishtegi «gua» retinde emes, al dunya juzi xaliqlari

arasinda belgili. Bul atamalar basqa xaliqlardiń tilindede ózbek tilindegidey ataliwi dásturge aylanǵan.

Shiǵistaǵi Irak, Egipet, Indiya, Arabstan, Yemen, Iran, Bagdad, Kashgar, Xorasan hám t.b. mámleketleriniń toponimikasindaǵi kópshilik atamalar ózbek tiline qabil etilgen hám sol formada jaziladi. Misal retinde respublika territoriyasindaǵi kóplegen elatli punktler atamalari bolǵan Bagdad, Xorosan, Kashǵar, Misr (Egipet), Balxti aytsaq boladi [2.].

Ayrim shiǵis mámleketleriniń atamalari evropa xaliqlari tilinde xar turli jazilip ham aytilsa, ózbek tilinde bul atamalar áiyemgi dáwirlerdegidey xazirde sóytip jazilip hám aytilip jur. Misali, xázirgi Iran mámleketi burin Evropada hám Rossiyada 20 ásirdiń 30 shi jillarina shekem Persiya dep atalatuǵin edi, al Orayliq Aziya xaliqlarinda burinnan Iran dep aytiladi.

Taǵi bir missal, rus tilindegi Egipet sózi, inglis tilindegi Egipetten payda bolǵan. Bul mámleket atamasiniń jergilikli aytiliwi Misr Arap Respublikasi dep aytiladi. Taǵi dásturi atamalardan Faragistan, Sogdiyana, Ustrushona, Shin, Sham, Rom, Dashti Qipshaq erte zamanlardan belgili bolip, tariyxiy kartalarda jazilip jur. Ózbek tilinde Qitay atamasi kóp jillardan berli Shin sinonimi paydalaniladi. Orayliq Aziya haliqlari tilinde keyingi ásirler dawaminda Qitay formasi paydalanilip kelindi, biraq mámlekettiń bul Shin sózinen ustemlik etip, dásturi atamaǵa aylandi.

Xazirgi waqitta dásturiy bolǵan ayrim atamalar Ózbek tiline rus tilinen ótken bolip, olar rus formasinda aytiladi. Misali, (jergilikli formasi qawistiń ishinde) Rim (Roma), Franciya (France), Avstriya (Esterreich), Neapol (Napoli), Norvegiya (Norge), Parij (Pari), Genuya (Henova), Jeneva (Hinebra), Finlandiya (Suomi), Yaponiya (Nippon) hám basqalar. X. Xasanovtiń pikirinshe, geografiyada dásturiy atamalardi qollaniwdiń ózgeshe nizami bar, yaǵniy dásturiy atamalar tek bir orinǵa tiyisli. [7.].

Birdew atamalar basqa aymaqlarda ushrasatuǵin bolsa, ol atamalardi sol mámlekettegidey etip jaziliwi kerek, dásturiy formada emes. Misali, Egipettegi

Aleksandriya – bizler ushin dásturiy atama, biraq AQSh taǵi qalani Aleksandriya dep jaziw qáte boladi.

Avstraliyaniń iri qalasin Sidney dep jazamiz, al Angliya hám AQShtaǵi bul atamadaǵi qalalardi Sidney formasinda jaziw kerek boladi.

Qániygelerdiń pikirinshe awdarma qansha jaqsi bolmasin, ol atamaniń mánisin, mazmunin belgili bir dárejede ózgertedi, atamaniń milletlik-geografiyaliq áhmiyeti joǵaladi. Awdarmalanǵan atamalardiń saniniń kóbeyiúi geografiyaliq kartalarda bir birin takrarlaytuǵin hám zerigerli atamalardiń kóbeyiwine alip keledi. Sonliqtan, atamani awdarmalaǵanda oniń geografiyaliq, lingvistikaliq, tariyxiy faktorlarina suyengen xalda uyrenilse kóp jillar dawaminda xizmet etedi.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1. JushkevishV.A.Obshaya toponimika - Minsk: Visshaya shkola, 1980.-288 s
2. Koraev S. Znasheniie geografisheskih nazvaniy. T.:Uzbekistan, 1978. -203s
3. Murzaev E.M.Osherkiy toponimiki. - M.: Misl, 1974. - 382 s.
4. Oxunov N. Opredelenie geografisheskih nazvaniy. - T.: Uzbekistan, 1994. 86 s.
5. Pospelov E.M.Kartografisheskaya toponimiya i istoriysheskaya kartografiya. - M.: Misl, 1979. 143-149 s.
6. Xasanov X. Urta Osiye joy nomlari tariyxidan. –T.: 1965. -80 s.
7. Xasanov X.Geografik nomlar siri. –T.: Uzbekistan,1985. -120 s.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ И КАРТОГРАФИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ В ТОПОНИМИКЕ

Сейтниязов К.М.- *к.г.н. доцент*

НГПИ имени Ажинияза, Республика Каракалпакстан, г.Нукус

Географический метод топонимических исследований основан на использовании народно-географических терминов - слов, определяющих характер географического объекта, его род и тип (например, река, гора, озеро). По сути, это нарицательное имя, поэтому народные термины используются для определения определенного географического понятия или явления. Генетическая связь народного термина с географическими объектами, их

сущность находит выражение в топонимии, являющейся своеобразным аккумулятором значительного количества терминов. Отношения между топонимом и термином - это универсальный образец топонимии. Топонимия - это разновидность ландшафтного языка, его словесное выражение. Можно сказать, что посредством топонимии ландшафт «рассказывает» о себе, о своей истории, динамике и особенностях. Ландшафтно-топонимические исследования способствуют реконструкции географических ситуаций прошлого. Географические названия позволяют идентифицировать и исследовать в динамике такие компоненты природного ландшафта, как формы рельефа, почвы, растительность и фауну.

Тесно связан с топонимикой и картографическим методом. Картографический метод успешно применяется для установления закономерностей размещения топонимических явлений, динамики их развития во времени, пространственных взаимоотношений и зависимостей, как между отдельными топонимическими фактами, так и между ними и различными социальными и природными реалиями, отраженными на картах. Выявление топонимического материала требует привлечения различных картографических источников. Разновременные карты позволяют изучать динамику различных явлений и их компонентов по данным топонимии.

Следовательно, карта с топонимической нагрузкой сама становится источником для дальнейшего изучения географических названий. Создание современных баз топонимов, электронных справочников, использование ГИС-технологий значительно активизирует топонимические исследования.

Исторические картографические источники имеют большое значение. Сравнение карт разных времен позволяет изучить динамику развития территории. Специфика исторического материала не всегда позволяет понять исторический процесс топонимической номинации. Поэтому топонимическую информацию можно рассматривать как своего рода исторический памятник, дополняющий и уточняющий исторические факты.

Географические и исторические причины часто требуют местного разъяснения. Иногда решение поставленного вопроса непросто и, помимо исторической, географической и лингвистической информации, требует привлечения дополнительных местных фактов. Полевые исследования, топонимические экспедиции и знакомство с объектами непосредственно на местности помогают уточнить значение некоторых топонимов и географических терминов, исправить определенные выводы. Подобные экспедиции также проводятся с целью сбора географических названий незначительных, небольших объектов, поскольку они исчезают по разным причинам, но также имеют значительную научную ценность.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Жучкевич В.А. Общяя топонимика. -Минск, 1980. 288 с.
2. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. Изд. 2-е, перер.и доп.: в 2-х томах. - М: “Картгеоцентр-Геоиздат”, 1999.
3. Кораев С. Узбекистон вилоятлари топонимлари. -Т., 2005. -238 с.
4. Хакимов К. Топонимика. –Т.,2016. -361 с.

ДАВЛАТ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИГА КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВНИ ЖОРИЙ ЭТИШ – СИФАТЛИ ТАЪЛИМНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Хожаев А.С.- *“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси доценти, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона политехника институти, Фарғона, Ўзбекистон*

Олий таълим муассасаларини бошқаришнинг бозор тамойилларини асосида мослаштириш жараёнлари кўп жиҳатдан мамлакатдаги маъмурий ислоҳотлар, янги давлат бошқарувини жорий этиш ва олий таълимни молиялаштиришда давлат улушини камайтириш орқали амалга оширилади. Бозор ёндашувлари олий таълим муаассасалари самарадорлигини баҳолашни кириш кўрсаткичларидан то чиқиш кўрсаткичларигача йўналтиради. Бунда рақобатбардошлик, самарадорлик, жавобгарлик, шаффофлик ва таълим тизимнинг сифатини таъминлашда муҳимлигини кўрсатади. Микро даражада бу

тенденциялар олий таълим муассасларининг давлат бюджети маблағларидан камроқ молиялаштирилиши орқали, бюджетдан ташқари қўшимча топиладиган даромад манбалари ва молиявий оқимларни фаол диверсификация қилишга, замонавий бошқарув ва бюджетлаштириш усулларини жорий этишга ва ўз фаолиятларини мижозларга йўналтириш орқали амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармонининг 7-параграфи г-бандида: **“тажриба тариқасида давлат улушининг 51 фоиздан кам бўлмаган қисмини сақлаб қолган ҳолда айрим давлат олий таълим муассасаларини давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш, уларда корпоратив бошқарув тамойилларини жорий этиш”** масалалари айтиб ўтилган [1]. Шу нуқтаи назардан таълим сифатини ошириш, олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш, бюджетдан ташқари маблағларни топиш юзасидан айрим давлат олий таълим муассасаларини давлат тасарруфидан чиқариш бўйича тадқиқотлар олиб борилди. Бу, энг аввало, давлат корхоналарини давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш жараёнларини тезлаштириш жараёнларида алоҳида ўрин тутади.

Олий таълим муассасаларининг ўзаро рақобат муҳитида фаолият юритишлари уларда корпоратив бошқарув тамойиллари ва корпоратив бошқарув маданиятини шакллантириш заруриятига олиб келади. Шу билан бирга, корпоратив бошқарув тамойиллари олий таълим муассасаларининг молиявий ва академик мустақиллиги асосида бошқарувнинг профессионаллашувини таъминлаб, бошқарув менежерларнинг ролини оширади.

Тадқиқотлар асосида олий таълим муассасаларининг мулкчиликнинг шакли, берилган мақоми, тури (институт, академия, университет) ва бўйсунуви бўйича танифланиши мумкин. Олий таълим муассасасининг ахборотларидан манфаатдор томонларга қуйидагилар киради: мулкдорлар, бошқарув ходимлари,

профессор-ўқитувчилар, талабалар, абитуриентлар ва ота-оналар, битирувчилар, иш берувчилар, давлат, маҳаллий хокимият ва жамият.

Ҳозирги кунда олий таълимга бўлган талабнинг ортиб бораётгани ва инсон капиталига киритиладиган сармоянинг зарурияти нуқтаи назаридан давлат томонидан молиявий ресурсларнинг чекланишига сабаб бўлмоқда. Олий таълим ривожланишининг ҳозирги босқичи олийгоҳлар амалиётига корпоратив бизнес муҳитини, меъёрлари ва қоидаларини, фаолият кўрсатиш ва бошқариш усулларининг жорий этилишига тобора талаб ортиб бораётгани кўриш мумкин.

Давлатнинг роли ўзгариб, бугунги кунда олий таълим муассасалари қўшимча даромад манбааларини диверсификация қилишга, мавжуд моддий, молиявий ва инсон ресурсларидан оптимал фойдаланишга, фаолиятларини молиялаштиришнинг янги манбааларини жалб қилишга, хусусий сектор билан изчил ҳамкорлик қилишга, айрим ҳолларда қўшилиш жараёнларида иштирок этишга сабаб бўлмоқда.

Айрим давлатларда олий таълим муассасаларини нотирожат акционерлик жамиятлари сифатида қайта ташкил этиш орқали акционерлик жамиятларига айлантиришга эътибор қаратилмоқда. Айниқса, бу ислоҳотлар қўшни Қозоғистон Республикасининг айрим олий таълим муассасалари фаолиятида яққол намоён бўлиб, уларда корпоратив бошқарувнинг илғор усулларидан фойдаланишга эътибор берилмоқда. Уларда олий таълим муассасаларини хусусийлаштириш бўйича чора-тадбирлар белгиланиб, биринчи навбатда 32 та олий таълим муассасаси нотижорат ва тижорат акциядорлик жамиятларига айлантирилиши, асосий ишлар 2017-йил бошидан бошланиши, 2020 йилга бориб хусусий капитал қўшимча акциялар чиқариш орқали жалб қилиниши, белгиланган [2, 3].

Бугунги кундаги олий таълим муассасаларининг замонавий муаммолари сирасига:

а) кўпроқ талабаларга хизмат кўрсатиш зарурати;

б) юқори харажатлар мавжуд эканлиги;

в) айрим профессор-ўқитувчиларнинг сифатсиз дарсларни ўтиши;

д) етарли институционал бошқарув масалалари корпоратив дунёнинг ўзига хос бизнес моделидан фойдаланилмаслиги.

е) бизнес олами билан етарли алоқаларни шаклланмаганлиги кабиларни келтириш мумкин.

Бизнинг фикримизча, ушбу ёндашув олий таълим муассасаларида олдида турган долзарб муаммоларни бартараф этишда корпоратив бошқарув тузилмаси ва амалиётини жорий этишни назарда тутади.

Ўрганилган тажрибалардан келиб чиққан ҳолда, бизнинг мамлакатда ҳам келгусида ушбу ишларга алоҳида эътибор қаратилишини юқоридаги қабул қилинган хужжатда белгилаб ўтилган. Шу нуқтаи назардан таълим сифатини таъминлаш, аҳоли турмуш шароитини яхшилаш мақсадида келгусида олий таълим муассасаларининг 51 фоиз давлат улушини сақлаб қолган ҳолда 49 фоиз қисмидаги улушга акцияларни чиқариш ҳамда уларни биринчи навбатда олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари ва ишчи ходимлари ўртасида жойлаштириш зарур, деб ҳисоблаймиз. Бу ўз навбатида қуйидаги ишларни ривожланишига сабаб бўлади:

- ҳар бир профессор-ўқитувчининг таълим муассасасидаги фаолиятига масъулият билан қарашга, дарсларни сифатли ўтилишига. Чунки олий таълим муассасасига қанча кўп таълим олувчиларни жалб қилиши орқали келгусида олинадиган даромад миқдори ҳам мос ҳолда ошиб боради;

- корпоратив бошқарувнинг илғор усулларини жорий этилиши орқали қўшимча молиявий маблағларнинг жалб этилишига;

- аҳолининг зиёли қатлами ҳисобланган профессор-ўқитувчиларнинг келгусида акциялар сотиб олиши қўшимча молиявий даромадларининг ошишига;

- ташқи муҳит таъсирида олий таълим муассасаларининг бизнес субъектлари билан муносабатларида юқори силжишлар юз бериши,

олийгоҳларнинг жамиятдаги, шунингдек, бозор муносабатлари тизимидаги ўрни ва фаолият йўналишлари ўзгариб боришида яққол намоён бўлади.

Тадқиқотлар асосида келгусида олийгоҳларда корпоратив бошқарувнинг жорий этилиши натижалари қуйидаги йўналишларида намоён бўлади:

• давлат ва олий таълим муассасалари ўртасидаги ташкилий-иқтисодий, молиявий, ҳуқуқий ва бошқа муносабатларнинг эркинлашиши;

•янги бошқарув тамойилларидан фойдаланиш натижасида олийгоҳларнинг фаолиятини тизимли баҳолаш мумкин бўлади;

• олийгоҳлар иқтисодий бозор иштирокчиси сифатида кўриб чиқиш ва фаолияти йўналишларини баҳолаш имконияти яратилади. Бунда олийгоҳларнинг бюджетдан ташқари маблағларни жалб қилиш муаммосини ижобий ҳал этиши зарур бўлади. Бунда илғор олийгоҳларнинг бюджетдан ташқари даромадлари умумий даромадларнинг 70 фоизини ташкил қилади, айниқса, Американинг олийгоҳларда бу худди шундай манзарани кузатиш мумкин;

• Кўп босқичли молиялаштиришни жараёнларини янада ривожланиши, жумладан, даромадларни диверсификация қилиш, бюджетдан ташқари даромадлар: ўқиш учун тўловлари, хўжалик шартномаси асосидаги илмий-тадқиқот ва ишланмалар тайёрлаш ҳамда уларни сотиш, саноат корхоналари, жамоат ташкилотлари, турли фондлар билан молиявий ҳамкорлик қилиш, бинолларни ижарага бериш ва бошқа тадбикорлик фаолиятлари билан шуғуллунаш.

• ривожланган корхоналар корпоратив тузилмалар томонидан олийгоҳларни молиявий қўллаб-қувватлашни кенгайиши. Бунда маблағлар, биринчи навбатда, илмий тадқиқотлар, талабалар учун стипендиялар, талабалар амалиёти дастурларини ишлаб чиқиш, профессор-ўқитувчиларга ҳомийлик қилиш, қўшма дастурлар ва олийгоҳлар негизида корпоратив тузилмаларни яратишга йўналтирилади.

• олийгоҳларнинг муваффақиятининг асосий кўрсаткичлари сифатида рентабеллик ва молиявий самарадорлик кўрсаткичларини чиқариш, иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва бошқалар. Олийгоҳларда корпоратив бошқарув усулларини ривожлантириш қуйидаги шаклларда амалга оширилади: бошқарув (васийлик) кенгашларининг ташкил этилиши, олийгоҳ мулкдорларининг (давлатнинг) бошқарувчилардан (бошқарув) ажралиши, шунингдек, бошқарувнинг ташкилий тузилмаси ўзгариши, бунда мустақил васийлик ва кузатув кенгашларининг жорий этилишида намоён бўлади.

• олийгоҳларнинг ташқи ва ички муҳит босими остида стратегик ривожлантириш йўналишларининг ишлаб чиқилиши, жумладан ривожланиш стратегиялари ва олийгоҳ миссиясининг риоя этилиши;

• корпоратив хулқ-атвор кодексларининг қабул қилинишида;

• корпоратив бошқарувнинг илғор тажрибаларини, шу жумладан шаффофлик, ҳисобдорлик, ахборотларни ошкор қилиш, баҳолаш ва натижалар асосида молиялаштириш тамойилларини жорий этиш, “муваффақият кўрсаткичлари” деб аталадиган нарсаларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш имконияти пайдо бўлади.

Бу ўз навбатида олий таълим муассасаларининг маҳаллий ҳамжамиятга ва бутун жамиятга хизмат қилишга қаратилган ижтимоий масъулиятни кенгайтириши, янги-янги имкониятларнинг амалга ошишига сабаб бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони, https://lex.uz/docs/4545884

2. Некоммерческое акционерное общество"Северо-Казахстанский университетимени Манаша Козыбаева"https://ku.edu.kz/

3. Казахстанские вузы преобразуют в акционерные обществаhttps://www.caravan.kz/news/kazakhstanskie-vuzy-preobrazuyut-v-akcionernye-obshhestva-387370/

4. Хожаев А.С. Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари маблағлар ички аудити ва назоратини ташкил қилишнинг методологик масалалари// “Солиқ ва ҳаёт” электрон илмий-оммабоп журнали, IV сон, 2022

йил, 108-117 бетлар http://soliqvahayot.uz/packet/maqolalar/9852473_maqola.pdf 9-бет

Влияние встроенного электрического поля на оптические и электрофизические свойства наногетероструктур AlGaAs/InGaAs/GaAs

Шарибаев М.Б., Мадияров Д.Н., АтахановШ.К.
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

$$\varphi_{10} = \int_0^1 \varphi(x)dx, \ \varphi_{1n} = 2\int_0^1 \varphi(x)\cos\lambda_n x dx, \ \varphi_{2n} = 2\int_0^1 \varphi(x)\sin\lambda_n x dx.$$

The solutions of problems (11)-(12) and (13)-(14) satisfy the following integral equations

$$\vartheta_{10}(t) = \varphi_{10}\int_0^t k(\tau)d\tau + \int_0^t \int_0^\tau k(\alpha)\vartheta_{10}(\tau - \alpha)d\alpha d\tau \quad (15)$$

and

$$\vartheta_{in}(t) = -\lambda_k^2 \varphi_{in} e^{-\lambda_n^2 t} + \varphi_{in} \int_0^t e^{-\lambda_n^2 (t-\tau)} k(\tau) d\tau +$$

$$+ \int_0^t e^{-\lambda_n^2 (t-\tau)} \int_0^\tau k(\alpha) \vartheta_{in}(\tau - \alpha) d\alpha d\tau, \quad (i = 1,2, \quad n = 1,2,\dots) \qquad (16)$$

Lemma 1. *Let $k(t) \in C[0,T]$, $(A1)$ are satisfied, then there exists a unique solution of the direct problem (5)-(7) $\vartheta(x,t) \in C^{2,1}(D_T) \cap C^{1,0}(\overline{D}_T)$.*

Let us multiply (5) by $\omega(x)$ and integrate over x from 0 to l. Taking into account conditions (6)-(7) and using (10), we obtain the relation

$$k(t) = \frac{1}{\Theta}(h''(t) - \int_0^t k(\tau) h'(t-\tau) d\tau - \sum_{n=0}^{\infty} \vartheta_{1n}(t) \int_0^t \omega''(x) \cos\lambda_n x dx +$$

$$\sum_{n=1}^{\infty} \vartheta_{2n}(t) \int_0^t \omega''(x) \sin\lambda_n x dx), \qquad (17)$$

where $\Theta = \int_0^1 \omega(x)\varphi(x)dx$.

The following lemma plays an important role in studying the uniqueness of the solution to problem (5)-(8):

Lemma: *If $\vartheta(x,t), k(t)$ is a solution of (5)-(8), then the functions*

$$\vartheta_{10}(t) = \int_0^1 \vartheta(x,t) dx, \quad \vartheta_{1n}(t) = 2\int_0^1 \vartheta(x,t) \cos\lambda_n x dx,$$

$$\vartheta_{2n}(t) = 2\int_0^1 \vartheta(x,t) \sin\lambda_n x dx$$

satisfy system (15), (16) on the interval $[0,T]$.

Now, consider the space $B_{2,T}^2$ consisting of functions of the form $\vartheta(x,t)$ in domain D_T, where the functions $\vartheta_{1n}(t)(n = 0,1,2,..), \vartheta_{2n}(t)(n = 1,2,\dots)$ are continuous on $[0,T]$ and satisfy the condition

$$\| \vartheta_{10}(t) \|_{C[0,T]} + (\sum_{n=1}^{\infty} (\lambda_n^2 \| \vartheta_{1n}(t) \|_{C[0,T]})^2)^{1/2} + (\sum_{n=1}^{\infty} (\lambda_n^2 \| \vartheta_{2n}(t) \|_{C[0,T]})^2)^{1/2}$$

$$< +\infty.$$

The norm in the space $B_{2,T}^2$ is

$$\| \vartheta(x,t) \|_{B_{2,T}^2} = \| \vartheta_{10}(t) \|_{C[0,T]} +$$

$$+ \left(\sum_{n=1}^{\infty} (\lambda_n^2 \| \vartheta_{1n}(t) \|_{C[0,T]})^2\right)^{1/2} + \left(\sum_{n=1}^{\infty} (\lambda_n^2 \| \vartheta_{2n}(t) \|_{C[0,T]})^2\right)^{1/2}.$$

We denote by E_T^2, the Banach space $B_{2,T}^2 \times C[0,T]$ of vector functions $z(x,t) = \{\vartheta(x,t), k(t)\}$ with norm

$$\| z(x,t) \|_{B_{2,T}^2} = \| \vartheta(x,t) \|_{B_{2,T}^2} + \| k(t) \|_{C[0,T]}.$$

Now we consider the operator

$$\Lambda(\vartheta, k) = \{\Lambda_1(\vartheta, k), \Lambda_2(\vartheta, k)\}$$

in the space E_T^2, where

$$\Lambda_1(\vartheta, k) = \tilde{\vartheta}(x,t) \equiv \sum_{n=0}^{\infty} \tilde{\vartheta}_{1n}(t)\cos\lambda_n x + \sum_{n=1}^{\infty} \tilde{\vartheta}_{2n}(t)\sin\lambda_n x, \qquad \Lambda_2(\vartheta, k) = \tilde{k}(t)$$

and the functions $\tilde{\vartheta}_{10}(t), \tilde{\vartheta}_{in}(t) (i = 1,2; n = 1,2,\dots), \tilde{k}(t)$ are equal to the right-hand sides of (15), (16) and (17) respectively.

Using simple transformations from (15), (16) and (17) we obtain following estimates

$$\| \tilde{\vartheta}_{10}(t) \|_{C[0,T]} \leq |\varphi_{10}| \| k \|_{C[0,T]} T + \| k \|_{C[0,T]} \| \tilde{\vartheta}_{10}(t) \|_{C[0,T]} T^2 \leq$$

$$\leq \| \varphi \|_{L_2[0,1]} \| k \|_{C[0,T]} T + \| k \|_{C[0,T]} \| \tilde{\vartheta}(x,t) \|_{B_{2,T}^2} T^2, \qquad (18)$$

$$\left(\sum_{n=1}^{\infty} (\lambda_n^2 \| \vartheta_{in}(t) \|_{C[0,T]})^2\right)^{\frac{1}{2}} \leq$$

$$\left(\sum_{n=1}^{\infty} (\lambda_n^4 |\varphi_{in}| + \lambda_n^2 \| k \|_{C[0,T]} |\vartheta_{in}| T + \lambda_n^2 \| k \|_{C[0,T]} |\varphi_{in}| T^2)^2\right)^{1/2} \leq$$

$$\leq \sqrt{3}(\sum_{n=1}^{\infty}(\lambda_n^4|\varphi_{in}|)^2)^{1/2} + \sqrt{3}(\sum_{n=1}^{\infty}(\lambda_n^2 \parallel k \parallel_{C[0,T]} |\vartheta_{in}|T)^2)^{1/2} + \sqrt{3}(\sum_{n=1}^{\infty}(\lambda_n^2 \parallel k \parallel_{C[0,T]} |\varphi_{in}|T^2)^2)^{1/2} \leq$$

$$\leq \sqrt{3} \parallel \varphi^{(4)} \parallel_{L_2[0,1]} + \sqrt{3} \parallel k \parallel_{C[0,T]} \parallel \varphi^{(2)} \parallel_{L_2[0,1]} T + \sqrt{3} \parallel k \parallel_{C[0,T]} \parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2} T^2$$

(19)

$$\parallel k \parallel_{C[0,T]} \leq \frac{h_1}{\Theta} + \frac{h_1}{\Theta} T \parallel k \parallel_{C[0,T]} + \frac{3\omega_0}{\Theta} \parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2}, \quad (20)$$

where $h_1 := \max_{t \in C^2[0,T]} |h(t)|$, $\omega_0 := \max_{x \in C^2[0,1]} |\omega(x)|$.

Then from (18)-(20) we find that

$$\parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2} \leq A_1(T) + B_1(T) \parallel k \parallel_{C[0,T]} + C_1(T) \parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2} +$$

$$+ D_1(T) \parallel k \parallel_{C[0,T]} \parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2}, \quad (21)$$

$$\parallel k \parallel_{C[0,T]} \leq A_2(T) + B_2(T) \parallel k \parallel_{C[0,T]} + C_2(T) \parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2} + D_2(T) \parallel k \parallel_{C[0,T]} \parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2}, \quad (22)$$

Where $A_1(T) = \sqrt{3} \parallel \varphi^{(4)} \parallel_{L_2[0,1]}$, $B_1(T) = \parallel \varphi \parallel_{L_2[0,1]} T + \sqrt{3} \parallel \varphi^{(2)} \parallel_{L_2[0,1]} T$, $C_1(T) = 0$, $D_1(T) = \left(1 + \sqrt{3}\right)T^2, A_2(T) = \frac{h_1}{\Theta}$, $B_2(T) = \frac{h_1}{\Theta} T$, $C_2(T) = \frac{3\omega_0}{\Theta}$, $D_2(T) = 0$.

From (27)-(28) we conclude that

$$\parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2} + \parallel k \parallel_{C[0,T]} \leq A(T) + B(T) \parallel k \parallel_{C[0,T]} + C(T) \parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2} + D(T) \parallel k \parallel_{C[0,T]} \parallel \vartheta \parallel_{B_{2,T}^2}, \quad (23)$$

where $A(T) = A_1(T) + A_2(T)$, $B(T) = B_1(T) + B_2(T)$, $C(T) = C_1(T) + C_2(T), D(T) = D_1(T) + D_2(T)$.

Theorem 1. *If conditions (A1)-(A3) and condition*

$$(B(T) + C(T) + D(T)(A(T) + 2))(A(T) + 2) < 1 \qquad (24)$$

hold, then problem (5)-(8) has a unique solution in the ball $S = S_R(\| z \|_{E_T^3} \leq R \leq (A(T) + 2))$ of the space E_T^2.

Remark 1. Let the assumptions (A1) - (A3) are satisfied. Then we will derive from (5)-(8) the equations (1)-(4). By denoting $u_t(x,t) = \vartheta(x,t)$, we obtain

$$u(x,t) = \varphi(x) + \int_0^t \vartheta(x,t)dt.$$

REFERENCES

1. F. Kanca, I. Baglan, An inverse coefficient problem for a quasilinear parabolic equation with nonlocal boundary conditions, Bound. Value Probl.,213(2013).
2. E. Azizbayov, Y. Mehraliyev, Solvability of nonlocal inverse boundary-value problem for a second-order parabolic equation with integral conditions, *Electron. J. Differential Equations*, No. 125, 2017, pp. 1–14.
3. A. Kilbas, *Integral equations: course of lectures*, Minsk: BSU, 2005.(In Russian)

DAVRIY FUNKSIYALARNING LAPLAS ALMASHTIRISHI.

Husanov E.A. *- assistent*
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent sh.

Laplas almashtirishi integral o'zgartirish usuli hisoblanadi. Ayniqsa chiziqli oddiy differensial tenglamalarni yechishda foydalidir. Laplas almashtirishi fizika, elektrotexnika, boshqaruv muhandisligi, optika, matematika va signallarni qayta ishlashning turli sohalarida juda keng qo'llanilishi sababli laplas almashtirishlarini tadqiq etish katta ahamiyat kasb etadi. Laplas almashtirishini kirish va chiqishlar joylashgan vaqt domenidan o'zgartirish sifatida talqin qilish mumkin ya’ni chastota sohasiga vaqt funktsiyalari, bu yerda kirishlar va chiqishlar murakkab burchak chastotasining funktsiyalarini o’z ichiga oladi. Ushbu tezisda davriy funksiyalarning laplas almashtirishlarini hisoblash usuli metodik yordam sifatida berilgan.

Biz hozir davri λ bo'lgan $f(x)$ funksiyani ya'ni, $f(x+\lambda)=f(x)$ bo'lgan funksiyaning Laplas almashtirishini [Sh.R. Xurramov:188 , Marcel B.:3] ko'rib chiqamiz . Faraz qilaylik, bu $f(x)$ funksiya kesmada uzluksiz bo'lsin, u holda ta'rif bo'yicha quyidagi ko'rinishda bo'ladi :

$$L[f(x)]=\int_0^{\infty} e^{-sx} f(x)dx=$$

$$=\int_0^{\lambda} e^{-sx} f(x)dx+\int_{\lambda}^{2\lambda} e^{-sx} f(x)dx+\int_{2\lambda}^{3\lambda} e^{-sx} f(x)dx+...$$

yuqoridagi davriy funksiya bo'lganligi sababli $x=u+\lambda$, $x=u+2\lambda$ va xuddi shunday davom ettirib ushbu almashtirishlarni bajarishimiz mumkin :

$$L[f(x)]=\int_0^{\lambda} e^{-sx} f(x)dx+\int_0^{\lambda} e^{-s(u+\lambda)} f(u+\lambda)du+\int_0^{\lambda} e^{-s(u+2\lambda)} f(u+2\lambda)du+...+.$$

demak gipotezadan foydalansak, bu funksiyalar $f(u+\lambda)=f(u)$, $f(u+2\lambda)=f(u)$ ko'rinishga ega bo'ladi va shu tartibda davom etadi. Biz yuqoridagi ifodani soddalashtirishimiz mumkin :

$$L[f(x)]=\left(1+e^{-s\lambda}+e^{-2s\lambda}+...\right)\int_0^{\lambda} e^{-sx} f(x)dx=\frac{1}{1-e^{-s\lambda}}\int_0^{\lambda} e^{-sx} f(x)dx \qquad (1)$$

Bizga qulay bo'lishi uchun ushbu funksiya bilan tanishamiz

$$f_0(x)=\begin{cases} f(x),\ t\in[0,\lambda] \\ 0,\ t\notin[0,\lambda] \end{cases}$$

va bu (1) tenglamaga aylanadi

$$L[f(x)]=\frac{F_0(s)}{1-e^{-s\lambda}}$$

bu yerda

$$F_0(s)=\int_0^{\infty} e^{-sx} f_0(x)dx=\int_0^{\lambda} e^{-sx} f(x)dx$$

Shunday qilib biz ushbu natijalarga ega bo'lamiz .

Laplas aylantirish ning a davriy funktsiyasi :

Agar $f(x)$ davriy funksiyaning davri λ bo'lsa, u holda uning Laplas almashtirishi ushbu formula bilan beriladi

$$F(s)=\frac{F_0(s)}{1-e^{-s\lambda}} \qquad (2)$$

bu yerda

$$F_0(s)=\int_0^{\lambda} e^{-sx} f(x)dx$$

Aniqlilikuchunbiz $f(x+2\lambda)=f(x)$
orqalitasvirlangankvadratdavrliLaplasalmashtirishiniquyidagifunksiyabilanolamiz.

$$f(x)=\begin{cases}1 & (0<x<\lambda),\\ -1 & (\lambda<x<2\lambda).\end{cases}$$

(2) formula orqali biz quyiodagicha formulaga ega bo'lamiz :

$$F(s)=\frac{1}{1-e^{-2s\lambda}}\int_0^{2\lambda} e^{-sx} f(x)dx=$$

$$=\frac{1}{1-e^{-2s\lambda}}\left(\int_0^{\lambda} e^{-sx} f(x)dx+\int_{\lambda}^{2\lambda} e^{-sx} f(x)dx\right)=\frac{(1-e^{-s\lambda})^2}{s(1-e^{-2s\lambda})}$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.R. Xurramov. Oliy matematika (m asalalar to‘plami, nazorat topshiriqlari). Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. 3-qism.
2. Bracewell, R.N., The Fourier transform and its applications. New York, McGrawHill, 1986, 2nd ed., revised.
3. Doetsch, G., Guide to the applications of Laplace transforms. London, Van Nostrand, 1961.
4. A. D. Poularikas, The Transforms and Applications Handbook (McGraw Hill, 2000), 2nd ed.

QATLAMALI KO`PXILLIKLAR DIFFEOMORFIZMLARI GRUPPASI HAQIDA

Raximboyev Sh- *O'zbekiston Milliy Universiteti*

Uzluksiz akslantirishlar ichida biz uchun muhim akslantirishlardan biri topologik akslantirishdir. Topologik akslantirish gomeomorf akslantirish ham deb ham ataladi. X va Y topologik fazolar, $f: X \to Y$ akslantirish berilgan bo`lsin. Agar f akslantirishga teskari akslantirish f^{-1} mavjud va f, f^{-1}– akslantirishlar uzluksiz bo’lsa, f topologik akslantirish yoki gomeomorfizm deb ataladi. Topologik akslantirish ta’rifidan bevosita kelib chiqadiki, agar f topologik akslantirish bo’lsa, bunga teskari akslantirish f^{-1}– ham topologik akslantirish bo`ladi. Endi $f$ uchun teskari akslantirish mavjud bo`lishi uchun zarur va yetarli shartga e’tibor beraylik. Teskari akslantirish Y ning har bir nuqtasiga X ning har bir nuqtasini mos qo`yadi. Demak, ixtiyoriy $y \in Y$ uchun birorta $x \in X$ mavjud bo’lib, $y = f(x)$ tenglik o`rinli bo`lishi kerak. Buning uchun esa $Y = f(X)$ bo’lishi, ya’ni f ustlama akslantirish bo’lishi kerak. Bundan tashqari f^{-1} teskari akslantirish $y \in Y$ nuqta bitta $x \in X$ nuqtani mos qo’yadigan $x_1 \neq x_2$ bo’lganda $f(x_1) \neq f(x_2)$ bo’lishi, ya’ni o’zaro bir qiymatli akslantirish bo’lishi zarurdir. Shunday qilib , f ga teskari akslantirish f^{-1} mavjud bo’lishi uchun f ning ustlama va o’zaro bir qiymatli akslantirish bo’lishi zarur va yetarli. Agar X va Y topologik fazolar uchun $f: X \to Y$ topologik

akslantirish mavjud bo'lsa , X va Y topologik fazolar o'zaro gomeomorf yoki topologik ekvivalent fazolar deb ataladi.

Bizga M Xausdorf fazosi va φ gomeomorfizm berilgan bo'lsin.

Ta'rif 1. Agar M – xausdorf topologik fazoning har bir $p \in M$ nuqtasi uchun shu nuqtani o'z ichiga olgan U ochiq to'plam va $\varphi: U \to G, G \subset R^n$ gomeomorfizm mavjud bo'lsa, u holda M fazo shu (U, φ) kartalar bilan birgalikda topologik ko'pxillik deyiladi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, U $-M$ dagi ochiq to'plam, $p \in M, \varphi: U \to \varphi(U) -$ gomeomorfizm va $\varphi(U) - R^n$ fazodagi ochiq to'plam. $\{(U, \varphi)\}$ kartalar oilasi M ning atlasi deyiladi va A bilan belgilanadi $A = \{(U, \varphi)\}$. Bu ta'rifda uchragan n soniga M ko'pxillikning o'lchami deyiladi va bu $dim(M) = n$ shaklida yoziladi. Moslashtirilgan kartalardan tuzilgan (aniqrog'i C^∞ – moslashtirilgan kartalardan tuzilgan) atlas silliq atlas deb ataladi. Agar A atlasning barcha kartalari bilan moslashtirilgan karta ham shu A da yotsa, u holda A maksimal atlas deyiladi. Agar M topologik ko'pxillik uchun silliq maksimal atlas $A_{\max}$ mavjud bo'lsa u holda M silliq strukturali ko'pxillik . M ko'pxillik bu $A_{\max}$ atlas bilan birgalikda $(M, A_{\max})$ silliq ko'pxillik deyiladi. **Misol 1**. $S^2 = \left\{x^2 + y^2 + z^2 = 1\right\}$ ikki o'lchovli silliq ko'pxillik bo'ladi, ya'ni $S^2 = M^2, S^2 = (x, y, z) \in R^3, x^2 + y^2 + z^2 = 1$. Agar M – riman ko'pxilligi va

$Homeo\,(M) - M$ ko'pxillikdagi barcha topologik akslantirishlar to'plami. Agar

$\varphi_1, \varphi_2 \in Homeo\,(M)$ bo'lsa ularning kompozitsiyasi ham $\varphi_1 \circ \varphi_2$ topologik akslantirish bo'ladi. Agar $\varphi_1 \varphi_2 = \varphi_1 \circ \varphi_2$ qo'ysak, $\varphi_1, \varphi_2 \in Homeo\,(M)$ gruppa tashkil qiladi. Bu yerda biz $Homeo\,(M)$ ni kompakt ochiq topologiya deb qaraymiz. Uning ta'rifi quyidagi ko'rinishda. Bizga k o'lchamli F_1, F_2 qatlama bilan n -o'lchovli M, N silliq ko'pxilliklar berilgan bo'lsin (bu yerda $0 < k < n$).

Ta'rif 2. Biror $\varphi: M \to N$ gomeomorfizmda F_1 qatlamadagi ixtiyoriy L_α qatlamning $\varphi(L_\alpha)$ aksi F_2 qatlamaning qatlami bo'lsa, beriilgan (M, F_1) va (N, F_2) gomeomorfik deyiladi va $(M, F_1) \approx (N, F_2)$ kabi yoziladi. (M, F_1) ko'pxillikni (N, F_2) ko'pxillikgaakslantiruvchi φ gomeomorfizmqatlamanisaqlovchideyiladiva $\varphi: (M, F_1) \to (N, F_2)$ ko'rinishdayoziladi. Agar $M = N$ va $F_1 = F_2$ munosabatlaro'rinlibo'lsa, qatlamaliko'pxillikninggomeomorfizmiberilgandeymiz.

Ta'rif 3. Agarbiror $\varphi: M \to N$ diffeomorfizmuchun F_1 qatlamaning L_α qatlamningobrazi $\varphi(L_\alpha)$ F_2 qatlamaningqatlamibo'lsa, uholda φ akslantirish $(M, F_1), (N, F_2)$ qatlamaliko'pxilliklardiffeomorfizmideyiladiva $\varphi: (M, F_1) \to (N, F_2)$ ko'rinishdayoziladi.

Misol 2. Quyidagi $f: R^2 \setminus (0,0) \to R^1$, $f(x_1, x_2) = \left(\frac{x_1}{a}\right)^2 + \left(\frac{x_2}{b}\right)^2$ submersiyaniqaraylik. Busubmersiyaning $f(x_1, x_2) = 1$ sathto'plamlarihosilqiluvchi F qatlamaningqatlamlarimarkazikoordinataboshidakattavakichikyarimo'qlari a va b bo'lgankonsentrikellipslardaniborat. $\varphi(x_1, x_2) \to \varphi(\lambda x_1, \lambda x_2)$ diffeomorfizmqatlamanisaqlaydi, ya'ni

$$f(\varphi(x_1, x_2)) = \left(\frac{\lambda x_1}{a}\right)^2 + \left(\frac{\lambda x_2}{b}\right)^2 = \lambda^2 \left(\left(\frac{x_1}{a}\right)^2 + \left(\frac{x_2}{b}\right)^2\right) = \lambda^2 \cdot 1.$$

Ta'rif 4. $\varphi: (M, F_1) \to (N, F_2)$ diffeomorfizm (M, F) qatlamaliko'pxillikizometriyasideyiladi, agar φ akslantirishning F qatlamaningharbirqatlamidagitorayishiizometrikakslantirishbo'lsa, ya'niharbir L_α qatlamuchun $\varphi: L_\alpha \to \varphi(L_\alpha)$ akslantirish $L_\alpha, \varphi(L_\alpha)$ ko'pxilliklarorasidaizometriyabo'lsa.

Misol 3. $f: R^2 \setminus (0, x_2) \to R^1$, $f(x_1, x_2) = x_1$ funksiyaniqaraylik. Bufunksiyaningsathchiziqlari $f(x_1, x_2) = c$ hosilqiluvchi F qatlamaningqatlamlari Oy o'qigaparallelto'g'richiziqlardaniborat. $\varphi(x_1, x_2) \to \varphi(\lambda x_1, \lambda x_2)$

diffeomorfizmqatlamanisaqlaydivaharbir L_α qatlamuchun $\varphi: L_\alpha \to \varphi(L_\alpha)$ akslantirish $L_\alpha, \varphi(L_\alpha)$ ko'pxilliklarorasidaizometriyabo'ladi, ya'ni $f(\varphi(x_1, x_2)) = x_1 = c$

Biz quyidagi $\varphi: R^{n+1} \to R^{n+1}$ akslantirish va A matritsani qaraymiz.

$$\begin{cases} y_1 = a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \cdots a_{1n}x_n \\ y_2 = a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \cdots a_{2n}x_n \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ y_n = a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + \cdots a_{nn}x_n \\ y_{n+1} = f(x_1, x_2, \cdots x_n) - x_{n+1} \end{cases} \quad A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \cdots & a_{2n} \\ \cdots & \cdots & \cdots & \cdots \\ a_{n1} & a_{n2} & \cdots & a_{nn} \end{pmatrix}$$

Teorema . Agar φ differensiallanuvchi va $det|A| \neq 0$ bo'lsa φ akslantirish diffeomorfizm bo'ladi.

Misol. $\varphi: \begin{cases} y_1 = x_1 + x_2 \\ y_2 = x_1 - x_2 \\ y_3 = x_1^2 + x_2^2 - x_3 \end{cases}$ va $\varphi^{-1}: \begin{cases} x_1 = \dfrac{y_1 + y_2}{2} \\ x_2 = \dfrac{y_1 - y_2}{2} \\ x_3 = \dfrac{y_1^2 + y_2^2}{2} - y_3 \end{cases}$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Tamura I. Topology of foliations: an introduction// Translations of mathematical monographs. American Mathematical Soc., – 2006.
2. Нарманов А. Я. Геометрия орбит векторных полей и сингулярные слоения// монография, Ташкент: Университет, 2015, 192 С.
3. Narmanov A.Ya., Sharipov A.S. On the group of foliation isometries// Methods of functional Analysis and topology, Kiev, Ukraine, – 2009. – V.15. – P.195-200.

PYTHON DASTURLASH TILINI O'QITISHDA FUNKSIYALAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Yaxshiboyeva A.*– 4-kurs talabasi,*
Ilmiy rahbar ***Abdullaev A.*** *dotsent*
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, Nukus shahri

Hozirgi vaqtda barcha sohalarni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.Ta'lim sohasida ham axborot texnologiyalarining o'rni keskin ortib bormoqda shu sababdan umumta'lim maktab o'quvchilariga dasturlash tillarini o'qitishda alohida uslub bilan yondashish, soddalashtirilgan usullarni ishlab chiqish, o'quvchilar yoshini inobatga olgan holda vazifalar tayinlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning mustaqil dastur tuzishni o'rgatish, dasturlash tillariga qiziqtirish orqali o'quvchilarni kelajakda o'z o'rnini topishga va mamlakatimiz rivoji uchun mukammal dastur ishlab chiqishiga turtki bo'ladi.

Python dasturlash tilini o'qitishda quyidagi tushunchalar asosiy hisoblanadi.
Funksiya – ma'lum bir vazifani bajaruvchi, qandaydir nomga ega, bir yoki bir necha qiymatni qabul qiluvchi, ishni tugatganidan keyin esa asosiy dasturga bir yoki bir necha natija qiymatlarini qaytaruvchi qism dastur.

Qism dastur-zarurat tug'ilganda chaqiriladi. U ayni bir kodni bir necha marta yozish zaruratini bartaraf qilib, butun dastur davomida ko'p marta foydalanishi mumkin. Bu kodni blokligini oshiradi, tushunishni osonlashtiradi va xatolarni topishda yordam beradi. Xato bor yoki yo'qligini bitta kod blokining o'zida tekshirsa bo'ladi. Agar xato qism dasturda bo'lsa, faqat qism dasturning o'zini tuzatishga zarurat tug'iladi. Agar qism dasturdan foydalanmasdan, kod bir necha joyda takror-takror yozilsa, u holda butun dastur bo'ylab xatolarni qidirishga to'g'ri keladi[1,2,3]..

- Kodni faqat bitta joyda yangilash kerak bo'ladi: Kiritilgan barcha tuzatishlar qism dastur chaqirilishi bilan amal qila boshlaydi.
- Protsedura funksiyaga o'xshash ko'p marta foydalanishi mumkin bo'lgan qism dastur bo'lib, yagona farqli jihati hech qanday qiymatni qaytarmaydi.

Funksiyalar def zahira so‘zi orqali aniqlanadi. Bu so‘zdan so‘ng funksiya nomi, undan so‘ng qavs va shu qavs ichida bir necha o‘zgaruvchilarni ko‘rsatish mumkin bo‘ladi va oxirida ikki nuqta (:) yoziladi. Shulardan so‘ng funksiyani tashkil qiluvchi buyruqlar bloki yoziladi.

Biz bosqichma-bosqich harakat qilamiz. Birinchidan, parametrlari bo'lmagan funksiyani aniqlaymiz va chaqiramiz.

Funksiya nomini va qavslarni oddiygina yozish orqali chaqirilishi mumkin. Funksiya nomi orqali chaqirilganda uning tarkibidagi buyruqlar ketma-ketligi bajariladi. Shundan so'ng dastur funksiya chaqirilgan satrga qaytadi va shu satrdan keyingi buyruqlarga o'tadi.

Pythonda protseduralar deyarli funksiyalardek yoziladi. Farqi shundaki, protseduralar hech qanday qiymatni qaytarmaydi.

Funksiyaning o’zini-o’zi chaqirishiga rekursiya deyiladi va bunday funksiyalar rekursiv funksiyalar deyiladi.

O‘zgaruvchilar funksiyalarda lokal ko‘rinish sohasiga ega. Bu shuni bildiradiki, hatto lokal va tashqi o‘zgaruvchilar bir xil nomga ega bo‘lsa ham, lokal o‘zgaruvchi o‘zgarishi tashqi o‘zgaruvchiga ta’sir qilmaydi.

```
def get_sum():
    a=int(input("lokal o'zgaruvchi a="));
    print(a);
b=int(input("global o'zgaruvchi b="));
get_sum();
print();
```

Lokal o‘zgaruvchini global qilish mumkin, agar uning nomi oldidan global kalit so‘zi ko‘rsatilsa. Agar tashqi o‘zgaruvchi global sifatida e’lon qilingan bo‘lsa, unga ixtiyoriy funksiyadan murojaat qilish mumkin:

```
def get_sum():
    global a;
    a=int(input('a='));
    print(a);
b=int(input('b='));
get_sum();
print(b);
```

Masala. Ixtiyoriy sonning darajasini hisoblovchi Daraja2 nomli funksiya hosil qiling. Daraja2 funksiyasi orqali a, b, c sonlarining darajasini hisoblovchi dastur tuzing.

```
def Daraja2(a):
    a=a*a;
    return a;
a=int(input('a='));
b=int(input('b='));
c=int(input('c='));
print("a sonning darajasini=",Daraja2(a));
print("b sonning darajasini=",Daraja2(b));
print("c sonning darajasini=",Daraja2(c));
```

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sh.A.Mengliyev, O.A. Abdug’aniev, S.Q.Shonazarov, D.Sh.To’rayev “Python Dasturlash tili”. Termiz-2021

2. Билл Любанович “ Простой Python ”- Современный стиль программирования. Питер, 2021.

3. С.К.Буйначев, Н.Ю.Боклаг “Основы программироиания на языке Python”. Екатеринбург Издательство Уральского университета 2014

MACROMEDIAFLASHTEXNOLOGIYASININGIMKONIYATLARIDA NFOYDALANISH

QurbonboyevaA.*– 4-kurstalabasi, Ilmiyrahbar**Abdullaev A.**dotsent*

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, Nukus shahri

Pedagogik dasturiy vositalarda an’anaga aylangan matnlar, rasmlar, nazorat testlari, audio va video materiallar, animatsiyalar bilan bir qatorda elektron annagramma, elektron rebuslarni tayyorlashham mumkin.Ularning an’anaviy (bosma) ko‘rinishdagi nusxalaridan farqi shundaki elektron ko‘rinishdagi annagramma, balki topshiriqni yechib, natijani kompyuter tekshirib beradi. Tekshirish uchun maxsus dinamik matn maydoni hosil qilingan bo‘lib, unda natija “To‘g’ri” yoki “Noto‘g’ri” kabi so‘zlar orqali chiqarib beriladi.Bu imkoniyat o‘quvchilarni topshiriqni to‘g’ri yecha olmaganda, qayta-qayta ishlab ko‘rish imkonini beradi. Endi Flash dasturida bu elektron manbani dasturiy ta’minotini yaratish bilan tanishib chiqamiz.Ishni bajarish quyidagi ketma-ketliklar yordamida amalga oshiriladi:

1.Flash dasturini yuklaymiz. Buning uchun Пуск > Все программы > Macromedia > Macromedia Flash 8 > flash document.

2. Dastur ishga tushgandan keyin bir necha oyna (sahna) yaratib olamiz buning uchun [shift]+[F2] tugmalarini bosamiz, [+] tugmasi yordamida yangi oynalar yaratamiz. Dastlab 1-oyna “Scene 1” , 2-oyna “Scene 2”,…, deb nomlangan bo‘ladi. Oyna nomi ustiga sichqonchani ikki marta chertib, ularning nomlarini o`zgartiramiz 1-oyna nomini “Dastlabki”, 2-oyna “Bir”, 3-oyna “Ikki”. Shu tariqa 3 ta oynani yaratamiz. Shundan so`ng har bir oynaning birinchi kadriga stop() buyrug‘ini yozib chiqamiz, aks holda oynalar to`xtovsiz namoyish qilib boriladi. 3. Dastlabki oynaga rebusning savol yoki topshirig’ini Tools > Text Tool (T) uskunasi yordamida kiritamiz. 4. Savolni kiritib bo‘lgandan keyin, endi rebusning savoliga o‘quvchi javobni elektron ko‘rinishda kiritishi kerak bo‘ladi. Buning uchun kiritish joyini aniqlab olish kerak.

Odatda bunday kalit so‘zlarni (javoblarni) kiritish uchun Flashning Tools > Text Tool (T) uskunasidan foydalaniladi. Uning yordamida javob kiritiladigan matn maydoni chizib olinadi va uni belgilagan holda Properties panelidan Text type ro‘yxatini ochib, unda matnning turini Input Text ko‘rinishiga o‘zgartiramiz. Var: maydoniga esa javob ni kiritamiz. Shu bilan javobni kiritadigan maydonimiz tayyor. 5. Endi yuqoridagi maydonga kiritilgan javobni tekshirishni boshlash uchun shu maydonning to‘g’risiga ixtiyoriy ko‘rinishdagi tugma (button) hosil qilamiz. Buni chizish yo‘li bilan yoki tayyor tugma shaklidagi rasmni import qilish orqali ham hosil qilsa bo‘ladi. Chizilgan yoki import qilingan rasmni tugmaga aylantirish uchun uni belgilab, Convert to Symbol buyrug’i beriladi. Paydo bo‘lgan Convert to Symbol oynasidan Type: > Button tanlab, OK tugmasi bosiladi. Belgilangan shakl tugmaga aylangandan keyin, unga nisbatan Actions oynasi faollashadi. Buni uni nomi “Actions – Frame» dan «Actions – Button»ga aylanganidan ham payqash mumkin. Shundan so‘ng Actions oynasiga tugmaga tegishli bo‘lgan vazifalarni amalga oshirish imkonini beradigan dastur kodini kiritishimiz kerak. U quyidagilardan iborat:

```
on (release) {
  if (javob=="asc") gotoAndPlay("Bir",1);
  else gotoAndStop("Ikki",1); }
```

Bu yerda javob kiritilgandan keyin uni tekshirish amalga oshadi. Buning uchun tekshirish tugmachasini bosish kerak.

Demak parol o`zgaruvchisining qiymati tekshiriladi. Agar u “asc” ga teng bo`lsa, “bir” nomli oyna ochiladi, agar “asc” ga teng bo`lmasa, “ikki” nomli oyna ochiladi.

6. Endi “Bir” nomli oynaga o‘tib olamiz, javobni to‘g’riligini chiqarib beruvchimatn maydonini hosil qilamiz. Flashning Tools > Text Tool (T) uskunasidan foydalanib javob chiqariladigan matn maydoni chizib olinadi va uni belgilagan holda Properties panelidan Text type ro‘yxatini ochib, unda matnning turini Input Text ko‘rinishiga o‘zgartiramiz.

7. Endi “Ikki” nomli oynaga o‘tib olamiz, javobni noto‘g’riligini chiqarib beruvchimatn maydonini hosil qilamiz. Flashning Tools > Text Tool (T) uskunasidan foydalanib javob chiqariladigan matn maydoni chizib olinadi va uni belgilagan holda Properties panelidan Text type ro‘yxatini ochib, unda matnning turini Input Text ko‘rinishiga o‘zgartiramiz.

8. Foydalanuvchi yana qayta parolni kiritib ko`rish imkoniga ega bo`lishi uchun “ikki” nomli oynaga dastlabki oynaga qaytish uchun tugma (button) hosil qilamiz. Tugmaga quyidagi kodni kiritamiz:

on (release) { gotoAndStop('dastlabki',1);}

Olingan natijaga to‘laqonli sinovdan o‘tkazish uchun Ctrl+Enter klavishalar kombinatsiyasini yoki Control menyusidan Test Movie buyrug’i beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. К.Голомбински, Р.Хаген. Основы визуального дизайна для графики веб и мультимедиа «Питер» 2013.

2.Дронов В. А. Macromedia Flash MX. - СПб.: БХВ-Петербург, 2003.

THE PROBLEM OF *l*-APPROACH IN NON-STATIONARY GEOMETRIC CONSTRAINTS DIFFERENTIAL GAME.

Turgunboeva M.- *student of PhD*
Namangan State University,Namangan

We will consider the differential game which includes two players *P* (Pursuer) and *E* (Evader) whose state vectors are x and y, and whose velocity vectors are u and v, respectively in the space $\mathbb{R}^n$. Let, in this consideration, the motion dynamics of *P* and *E* be described by the differential equations

$$P: \quad \dot{x} = u, \quad x(0) = x_0, \quad (1)$$

$$E: \quad \dot{y} = u, \quad y(0) = y_0 \quad (2)$$

correspondingly, where $x, y, u, v \in \mathbb{R}^n$, $n \geq 2$; x_0, y_0 are the initial states of the players for which it is presumed that $|x_0 - y_0| > l$, $l > 0$; the velocity vectors u and v act as control parameters of the players respectively, and they depend on time $t \geq 0$.

The controls u and v are regarded as measurable functions $u(\cdot):[0,+\infty) \to \mathbb{R}^n$ and $v(\cdot):[0,+\infty) \to \mathbb{R}^n$ accordingly, and they are subject to the constraints

$$|u(t)| \leq \rho a^{-kt} + a^{kt} \text{ for almost every } t \geq 0, \tag{3}$$

$$|v(t)| \leq \sigma a^{-kt} + a^{kt} \text{ for almost every } t \geq 0, \tag{4}$$

where ρ, σ, k are the given positive parametric numbers. Let $U_\rho^{a,k}$ stand for the family of all measurable functions corresponding to (3). Similarly, let the family of all measurable functions satisfying (4) be represented by $V_\sigma^{a,k}$.

If $u(\cdot) \in U_\rho^{a,k}$ and $v(\cdot) \in V_\sigma^{a,k}$, then the solutions to Cauchy's problems (1) and (2) are

$$x(t) = x_0 + \int_0^t u(s)ds, \qquad y(t) = y_0 + \int_0^t v(s)ds$$

and the pairs $(x_0, u(\cdot))$ and generate the motion trajectories **of the player *P* and *E* appropriately.**

The main target of the player *P*is to gain ground the player *E* at the distance $l > 0$ **(*l*-approach problem), i.e., to achieve the relation**

$$|x(\theta) - y(\theta)| \leq l \tag{5}$$

at some finite time $\theta > 0$. Whereas the objective of the player *E* is to avoid the occurrence of (5), i.e., to keep the inequality $|x(t) - y(t)| > l$ **for all $t \geq 0$ or, if it is impossible, to put off the time of the occurred of (5).**

We will introduce the following denotations for the sake of convenience:

$$z(t) = x - y, \quad z_0 = x_0 - y_0.$$

And we come to the unique Cauchy problem $\dot{z} = u - v, \quad z(0) = z_0.$ (6)

Now we define a strategy for *P* on the basis of the works [1, p-31-38; 2;].

Definition 1. [4, p-907-921]For $\rho \geq \sigma$**,** we call the function

$$\mathbf{u}(z_0, t, v) = v + \lambda(z_0, t, v)\big(m(z_0, t, v) - z_0\big) \quad (7)$$

the *l-approach strategy* or Π_l*-strategy*for *P* in the differential game (1)-(4), where

$$\lambda(v, z_0) = \frac{1}{|z_0|^2 - l^2}\left[\langle v, z_0\rangle + \varphi(t)l + \sqrt{\big(\langle v, z_0\rangle + \varphi(t)l\big)^2 + \big(|z_0|^2 - l^2\big)\big(\varphi^2(t) - |v|^2\big)}\right],$$

$$\varphi(t) = \rho a^{-kt} + a^{kt}, \; m(z_0, t, v) = -\frac{v - \lambda(z_0, t, v)z_0}{|v - \lambda(z_0, t, v)z_0|}l.$$

Here $\langle v, z_0\rangle$ is scalar product of the vectors v and z_0 in $\mathbb{R}^n$. Moreover, the function $\lambda(z_0, t, v)$ is usually called the *resolving function*.

Definition 2. It is said that the Π_l-strategy (7) *guarantees to occurl-**approach*** **on time interval** $\big[0, T(z_0, v(\cdot))\big]$ **if, for any** $v(\cdot) \in V_\sigma^{a,k}$:

a) their exists an instant $t_* \in \big[0, T(z_0, v(\cdot))\big]$ at which $|z(t_*)| \leq l$ is satisfied;

b) an inclusion $\mathbf{u}(v, z_0) \in U_\rho^{a,k}$ is fullfilled on the interval $[0, t_*]$, where we say the number $T(z_0, v(\cdot))$a *guaranteed time of l-**approach***.

Theorem. If one of the following conditions holds in differential game (1) – (4), that is, 1. $0 < a < 1, \; \rho > \sigma$ or 2. $a > 1, \; \rho > \sigma + k(|z_0| - l)\ln a$, t**hen** Π_l-strategy (7)

guarantees to occur ***l*-approach on the time** $T\left(z_0, v(\cdot)\right) \le T_l$ in the *l*-approach problem (1)-(4), where

$$T_l = \frac{1}{k}\log_a \frac{\rho - \sigma}{\rho - \sigma - \left(|z_0| - l\right)k \ln a}.$$

References

1. L.A. Petrosyan, V.G. Dutkevich, *Games with "a Survival Zone", Occasion L-catch* (in Russian), Vestnic Leningrad State Univ., 1969, 3(13), 31-38.
2. A.A. Chikrii, *Conflict-Controlled Processes*, Dordrecht; Kluwer, 1997.
3. A.S. Bannikov, N.N. Petrov, *Linear non-stationary differential pursuit games with several evaders*, Vestn. Udmurtsk. Univ. Mat. Mekh.Komp.Nauki,2014,78(3),3-12.
4. B.T. Samatov, *Problems of group pursuit with integral constraints on controls of the players II*, Cybernetics and Systems Analysis, 2013, 49(6), 907-921.
5. B.T. Samatov, M.A. Horilov, A.Kh. Akbarov, *Differential game: "Lifeline" for Non-Stationary Geometric Constraints On Controls*, Lobachevskii Journal of Mathematics, 2022, 43(1), 237-248.

MS EXCEL JADVAL MUHARRIRINING KENG IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Shaniyazova G.*– 4-kurs talabasi, Ilmiy rahbar* ***Abdullaev A.*** *dotsent*
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, Nukus shahri.

Microsoft Excel raqamli malumotlarni yozib olish va tahlil qilish uchun foydalaniladigan electron jadval dasturi.MS Excelda fayllar “.xlsx” kengaytmaga ega.Microsoft Office Excelda algebrik amal belgilari quyidagilar: +(qo’shish); -(ayirish); *(ko’paytirish); /(bo’lish); ^(darajaga ko’tarish). Excelda diagrammalardan ham foydalanish mumkin.Excel ko’plab malumot to’plamlarini saqlash va tartibga solish uchun ishlatilishi mumkin bo’lgan qulay dastur hisoblanadi.


Uning xususiyatlari va formulalaridan foydalanib,malumotlaringizdan mantiqiy amallarni bajarishda ham foydalanishingiz mumkin.Masalan,malumotni kuzatish va o’rtacha yig’indilarni avtomatik ravishda ko’rish uchun ham electron jadvallardan foydalanish imkoni bor.Sonlarning eng kata umumiy bo’luvchisini hisoblash(EKUB)

4ta ixtiyoriy sonni olamiz.Misol uchun,6;10;30;60 sonlarini eng kata umumiy bo’luvchisini hisoblaymiz.


1) A1 katakka 6 sonini,B1 katakka 10 sonini,A2 katakka 30 sonini,B2 katakka 60 sonini kiritamiz.Birinchi bo’lib,6 va 10 sonini,keyin esa 30 va 60 sonini hisoblaymiz;

   Formulalar yordamida hisoblashni boshlaymiz:


2) C3 katakka ushbu formulani kiritamiz:=НОД(A1:B2);




3) Enter tugmasini bosamiz,natijada quyidagi oyna hosil bo’ladi:



4) C4 katakka yana yuqoridagi formulani kataklarini harfini o’zgartirgan holda,quyidagicha kiritamiz:



5) Enter tugmasini bosamiz,quyidagi oyna hosil bo’ladi:



1	6	10	
2	30	60	
3			2
4			30
5			
6			
7			

Bu Excelning eng oddiy imkoniyatlaridan biri edi.Shuningdek,bu dasturning tayyor formula va funksiyalaridan ham foydalanib,turli xil hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Kaimin V.A. Informatika. Darslik. – M.: Infra-M, 2003
Kozyrev A.A. Informatika. Darslik. – SPb: izd-vo Mixaylova V.A., 2003
Joshua S., Nossiter A. Microsoft Excel 97 dasturidan foydalanishda : «Dialektika», Kiyev-Moskva, 1997
«Microsoft Office 97 bilan qanday ishlash mumkin» (ingl. Microsoft Office 97) » Microsoft Press, rasmiy nashri, 1998 yil
Microsoft Excel Yordami.

ОЛИЙ МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБАЛАР ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ

ТураеваН.А. *–доценти,* ***Исломова Д.Х.*** *- магистри*
Бухоро Давлат Университети

Аннотация: Мазкур мақолада талабаларга олий математика фанини ўқитишда мустақил таълим жараёнини ташкил этиш усуллари ҳакида сўз юритилади. Ҳар қандай фаолият шахснинг ўз олдига қўйган мақсади билан боғлик ҳолда вужудга келади ва унинг ҳаракатлари ушбу мақсад доирасида амалга оширилади. Шу маънода биз талабаларда илмий дунёкарашини шакллантиришга асос бўладиган омиллардан бири бўлган мустақил ишлашни назарий жиҳатдан таҳлил этишга ҳаракат қиламиз.

Калит сузлар: олий математика, интерфаол, таълим, фаолият, фаолликни ошириш, ташаббуслар ва самарадорликни ошириш.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы организации процесса самостоятельного обучения студентов высшей математике. Любая деятельность связана с целью личности и её действия осуществляются в рамках данной цели. Поэтому мы постарались теоритически проанализировать самостоятельную работу, являющуюся одним из ключевых факторов формирования научного мировоззрения студентов.

Ключевые слова: высшая математика, интерактивность, образование, повышение активности, повышение эффективности.

Annotations: The article covers the means of organizing independent study process in teaching mathematics to students. Every activity is initiated as per aims that one has set for oneself and one's activities take place within the framework of the established aims. Therefore, we try to analyze theoretically the independent efforts of students that serve as some of the foundations of creating scientific perspectives of students.

Keywords: applied mathematics, interactive education, increasing the participation, initiatives, increasing the efficiency.

Янги Ўзбекистонда аниқ фанларни ўқитишга бўлган сайъи ҳаракатлар таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳатлар орқали намоён бўлмоқда. Бир хиллик, бир хил ҳаракатларнинг такрорланиши аниқ фанларни ўрганишга нисбатан талабалар қизиқишини ўлдиради. Талабалар янгилик яратиш, ўзлари мустақил кашфиётлар ўтказиш ва фанни ўрганишда билиш қувончи уларда математика фанини ўрганишга нисбатан мотивация уйғотади. Дарс жараёнидаги бир хиллик ва доимий равишдаги “кўр-кўрона” аниқ қоидаларни ёдлаш эса фанни ўрганишдан маҳрум қилади ва аста-секин ижодкорлик қобилиятини йўқотиши мумкин.

Шарк донишмандлари айтганидек: Энг катта бойлик - бу ақл-заковат ва илмдир, энг катта мерос - бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу

билимсизликдир. Шу сабабли хаммамиз замонавий билимларни ўзлаштириб, илм-маърифат ва юксак маданият эгаси бўлмоқлик узлуксиз ҳаётимиз эҳтиёжига айланиши керак. Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз шарт ва зарур. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради.Зеро бугун дунёда барча соҳаларга ахборот технологиялари чуқур кириб бормоқда.

Ҳар бир талабанинг нуқтаи назарида унинг ҳаётга бўлган қатъий муносабати ифодаланади. Талаба ўзининг ҳаётий нуқтаи назарларини мустақил тарзда эгаллаган билимлари ва тўплаган тажрибалари заминида таркиб топтиради. Ҳар бир талабанинг нуқтаи назари қандай таркиб топганлигини, унинг мазмун-моҳияти яққол намоён қилади. Талабалар ўз нуқтаи назарларини ўзларини ўраб турган борлиқ асосида шакллантирадилар. Айнан бир хилдаги кишилар мавжуд бўлмаганидек, ўзаро бир хилда тенг келадиган нуқтаи назар ҳам мавжуд эмас. Буни муайян бир масалага оид фикрларнинг турли-туманлигидан ҳам билиш мумкин. Ҳар бир нуқтаи назар ўзига хос индивидуал характерга эга.

Таълим жараёнини замонавий талабларига мослаштириш, ривожланган хорижий тажрибалар асосида модернизациялаш ва унинг самарадорлигини таъминлашда ўқувчиларнинг мустақил фаолиятини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга.

Ўқувчиларнинг мустақил таълим олиши учун зарур шароитларни яратиш, ижодий фаолиятга йўллаш, касбий компетентлигини шакллантириш узлуксиз таълим тизимининг асосий вазифаларидан ҳисобланади.

Буюк рус математиги С. Ковалевская айтганидек “Математика фанини бировларнинг мисол –масала ечишини кузатиб эмас , балки ўзинг ечиб ўрганишинг мумкин” Зеро бир неча йиллар олдин айтилган бу фикр ҳозир ҳам долзарбдир. Чунки талаба ёки ўқувчи ўз устида канча кўп мустақил ишласа, унинг билим даражаси шунча ошиб бораверади. Биз ҳам олий математика

фанини ўқитиш жараёнида талабаларнинг мустакил ишлашини ташкил этиш билан ўқув самарадорлигини янада оширишга эришишимиз мумкин.

Бугунги кунда олий математика фанини ўқитиш бўйича бой тажриба тўпланган. Ҳар бир метод ўз ютуқлари ва камчиликларига эга бўлиб , маълум ҳолатларда ўқув жараёнида намоён бўлади. Замонавий ўқитиш технологиялари ўзида ҳар хил метод ва усулларни жамлаган ҳолдагина натижали бўлиши мумкин. Дарс жараёнида интерфаол усулларидан фойдаланишни тавсия этамиз. Интерактив метод (“Интер”- ўзаро, “act”-ҳаракат, алоқа) –ўзаро биргаликдаги ҳаракат, мулоқот ҳолатида бўлиш, ким биландир диалог қилишни англатади. Бошқача қилиб айтганда, интерфаол таълим – бу энг аввало диалогли ўқитиш бўлиб, бу жараёнда ўқитувчи ва талаба, талаба ва талаба ўртасида ўзаро ҳамкорлик вужудга келтирилади.

Интерактив методлар :

Айлана стол (баҳс мунозара ,дебатлар)

Ақлий ҳужум (брейнсторм,ақлий ҳужум)

Ишбилармон ва ролли ўйинлар

Case –study (аниқ вазиятни таҳлил этиш, вазиятли таҳлил)

Мастер класс (маҳорат дарслари)

Муаммоли таълимда кейс вазифалар асосида маълум бир воқеа ва ходисалар хақида тушунча ва муаммоли вазият яратилади. Кейс вазифаларни тузишда бир неча талаблар бўлиб, улар қуйидагилар: - ўқитувчи ўқувчиларга дарс мавзуси билан боғлиқ зиддиятли ҳолатни тушунтириш ва уни ечиш йўлини топиш; - бир масалага доир турли нуқтаи-назарларни баён қилиш; - ҳал этиш учун етарли бўлмаган, ортиқча маълумотлар бўлган ёки саволнинг қўйилиши нотуғри бўлган масалаларни ечишни таклиф этиш кабиларда намоён бўлади. Муаммоли таълим технологияларини математик масалалар тузишда ва кейс вазифаларни ечишда бир қанча даражалар мавжуд:

- ўқитувчи муаммони қўяди ва ўзи ечади;

- ўқитувчи муаммони қўяди ва унинг ечимини ўқувчилар билан биргаликда топади;

- ўқувчилар ўзлари муаммони қўядилар ва унинг ечимини топадилар. Муаммоли вазиятни ечишда қўлланиладиган усуллар:

- муаммони турли нуқтаи назардан ўрганиш, таҳлил қилиш;

- солиштириш, умумлаштириш;

- фактларни аниқлаш ва қиёслаш;

- вазиятга боғлиқ хулосалар чиқариш;

- ўқувчиларнинг ўзлари аниқ саволлар қўйиши ва бошқалар.

ADABIYOTLAR:

1. Alixanov S. Matematika o'qitish metodikasi. Cho'lpon nashriyoti matbaa uyi. Toshkent 2011.
2. Перова М.Н. Методика преподавание математики в коррекционной школе. Москва, 1999.
3. Ishmuxammedov R. Ta'limda innovatsiya. Toshkent 2010

ЭКОЛОГИК ИНКИРОЗ ВА УНИ ЮМШАТИШ МУАММОЛАРИ
(Қорақолпоғистон Республикаси мисолида)

Умарова А.Е. *- ассистент ўқитивчиси,* ***Рахимбаев К****.-студент*
Ажиниёз номидаги НДПИ, Нукус ш

Қорақолпоғистон Республикаси Бозор муносабатларига ўтаётган даврда ишлаб чиқариш сохаларида фойдаланилмаётган захираларни ишга қўйиш энг муҳим масалалар қаторига киради. Ишлаб чиқариш тармоқларини самарали ривожлантириш учун фойдаланишга тегишли мўл захиралар Амударё ҳавзасида жойлашган суғорма деҳқончилик районларида ҳам кўплаб учрайди. Амударё ҳавзасини ва унинг Орол денгизига яқин жойлашган қуйи оқими ер юзидаги энг йирик суғорилиб экиладиган деҳқончилик минтақалардан бири ҳисобланади. Бу ерда Ўзбекистон ва Туркманистон Республикаларининг 10млн гадан ортиқ суғориб экиладиган ер майдонлари жамланган. Шундан ҳозирги вақтда 2,8

млн.га ери фойдаланилмоқда. Шундан Ўзбекистоннинг таркибига тегишли экин майдони 1,6млн. га дан иборат. Қурғоқ ва бўз ерларни ўзлаштириш Амударё ҳавзасида 2-жахон урушидан кейин ривожланди. Ўз кучига суянган республика аҳолиси қисқа вақт ичида Амударё ҳавзасида қуруқ ва бўз ерларни ўзлаштиришда анча ютуқларга эришилди. Натижада қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ўртача йиллик ҳажми кўпайди. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини кўпайтириш ички резервларни фойдаланишдан ва йирик сув хўжалиги ишларини қуриш ҳисобидан амалга оширилди. Секундига 400 кубометр сув ўтказиш қувватига эга Қоракум каналининг, секундига 195 кубометр сув ўтказиш қувватига эга Қарши магистрал каналининг, сув метрдан иборат. Толимаржон сув омборининг ва секундига 140 кубометр сувни машина билан тортиб чиқарадиган Аму Бухоро каналига ўхшаган йирик сув хўжалиги иншоотларини қуриш ҳисобидан эришилди.

Шундай қилиб, Амударёнинг ўрта ва қуйи оқими районида Қорақум канали 1958-йилдан буён, Аму-Бухоро канали 1965-й, Қарши магистрал канали 1973-йилдан бошлаб фойдаланиб келяпти. Сув хўжалиги объектларини кўплаб қуриш қишлоқ хўжалиги экинларининг ер майдонини 2,3 ҳиссага, Қорақум канали районида эса 3,5 ҳиссага ўсишига асос солди. Натижада пахта маҳсулотини етиштириш 1958-йили 1,2 млн тонна бўлса, 2000-йили 3,2 млн тоннага етди. Суғориб экиладиган ер майдонларининг кенгайиши натижасида Амударё ҳавзасида дарё сувидан фойдаланишнинг миқдори 39-40млрд $м^3$ га ортиб, йилдан йилга кўпайиб бормоқда.

Масалан, Қорақум каналининг Амударёдан оладиган сувининг ҳажми 1958-йили секундига 108 кубометрни ташкил қиладиган бўлса, 1965-йили 219 кубометрни, 1970-йили 330 кубометрни, 1990-йили 400 кубометрни ташкил қилди. Мутахассисларнинг башоратларига қараганда бу кўрсаткич кейинги вақтларда секундига 600 кубометрга етказилиши кузатилади. Қарши магистрал каналининг эса Амударёдан оладиган сув ҳажми секундига 200 кубометрни, Аму Бухоро канали эса 112 кубометрни ташкил қилади. Қорақум магистрал

каналининг қурилиши натижасида фақат Туркманистоннинг ўзида пахта майдони 1958 -йиллардаги 195 минг гектардан 1996-йилга келиб 625 минг гектарга кўпайди. Шунинг ичида 330 минг гектари Қорақум канали таъсир қиладиган районда фойдаланишга берилди. Шунинг билан бир қаторда Керки текшириш станциясидан бошлаб Шодлик станциясигача 815км ораликда 20-дан ортиқ каналлар Амударё сувидан фойдаланмоқда. Масалан, шуларнинг йирикларидан секундига 43 кубометр сув олиб турган Куларик, 30 кубометр сув олиб турган Берзен, 38 кубометр сув олиб турган Саятнаукан ва яна бошқа каналларни айтиб ўтсак бўлади.

Амударёнинг Туямўйин сув омбори билан Тахиатош гидроузели оралиғида секундига 270 кубо метр сув олиш қувватига эга, Ташсага 170кубометр сув олиш қувватига эга Пахта Арна, Қиличниёзбой (81 кубометр).Савятжап (120 кубометр),Сувенлига (130кубометр) ўхшаган йирик-йирик суғориш системалари қурилди.


Амударё ҳавзасида суғориш тармоғининг умумий узунлиги 104 минг км.дан ошиб кетди. Шундан бетон билан қопланган қисми 3 минг км ни ташкил қилади, қолганларида эса сувнинг фильтрланиш йўли билан сарф бўлишига чора кўрилмаган. Амударё сувининг анча миқдори сув омборларини тўлдиришга ишлатилмоқда. Унинг миқдори дарёнинг ўрта ва қуйи оқимида йилига 13 млрд кубометрдан ошади. Шундай қилиб, Амударёдан сувнинг кўп миқдорда суғоришга олиниши ва бошқада мақсадларга фойдаланишнинг оқибатида Қорақум канали районида ерни кенг ҳажмда шўрланишига олиб келса, айрим минтақаларда эса сув қуриб қурғокчилик натижасида чўл майдонларининг ортишига олиб келмоқда. Қўшни давлатлардаги фақат ўз манфаатларини ўйлайдиган мутахассисларнинг фикрига қараганда юқорида кўрсатиб ўтганимиздек бўлмаяпти. Қорақум канали районида сизот сувларининг ҳажми хаддан ташқари кўпайиши натижасида 280 минг гектардай экин майдони қишлоқ хўжалиги айланишидан чиқиб қолиш эхтимоли мавжуд. Мелиоратив башоратларга қараганда бу ерлар катта ёрдамга муҳтож.

Шундай бир ҳолатда Орол денгизининг олдинги сув босаётган ерларда катта ҳажмдаги қум тузли чўллар пайдо бўлмоқда. Шундай қилиб, Амударё сувидан тежаб фойдаланмаслик натижасида катта минтақавий масштабдаги муаммолар пайдо бўлди. Орол инқирозини режали равишда ечиш учун бизнинг фикримизча Амударёнинг ўрта ва юқори оқимида сувдан фойдаланишнинг ҳажмини қайта қараб чиқилса яхши бўларди. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини кўпайтириш масаласи фақат экин ерлари майдонини кўпайтириш йўли билан эмас, балки, ишлаб чиқаришда фойдаланилмаётган резервларни ишга кўшиш йўли билан ечилса ўринли бўларди. Агар ишлаб чиқариш резервларидан мажмуали фойдаланиш тўғрисида айтадиган бўлсак унда муаммонинг ечилиши биргина йўли сувдан фойдаланиш технологиясини ишлаб чиқиш ва Оролга қуядиган сувнинг ҳажмини кўпайтириш зарур. Бахтга қарши кейинги йилларда Орол денгизига қуядиган оқар сувларнинг миқдори йилдан йилга қисқармоқда. Шунга мос денгиз сувининг тузлилиги олдинги 11-13% дан 58-60 % га юқорилади. Орол денгизининг қадимги қирғоқлари ва бўғозларидаги сувлар қуриб, денгиз қирғоғидан 50, айрим ерларда эса 150 км га чекинди. Бу ҳаммасидан ҳам олдин Оролга қуйиб турган Амударё ва Сирдарёнинг сув оқимининг кескин камайишига боғлиқ бўлди.

Ҳаммага маълум, Қорақум каналининг I-II ва III навбатлари қурилиб ишга тушиши билан каналнинг Амударёдан оладиган сувининг йиллик ҳажми 9-17 млрд. кубометрга етган ва фильрацияланиш даражаси қўрилмаган миқдорда кўпайди, 1995-йили (18-20 сентябрь) Нукусда бўлиб ўтган Халқаро анжуман маълумотларига кўра канал сувининг филтрацияланиш даражаси 45-48% ортди ва йил сайин сувнинг табиий йўл билан тўпланиши натижасида 33,5 млрд $м^3$ минерализацияланган ер ости сувлари пайдо бўлмоқда. Бироқ шунга қарамасдан Қорақум канали районда янги экин майдонини кўпайтириш давом этмоқда. Лекин шундай шароитда Оролнинг тақдири нима бўлади? Миллионлаб кубометр дренаж сувларини нима килишимиз керак, бу сувлар нима бўлса ҳам саҳрога чиқиб кетаверадими? Булар тўғрисида бошқача ўйлаш ва имкони борича

ҳосилдор тупроқли ерларни сувлардан қутқаришнинг йўллари изланиши зарур. Берилган маълумотларга қараганда, икки дарёдан Орол денгизига тушадиган сув ҳажми 1960-йилларгача 74,0 млрд. $м^3$ бўлса, 1960-1970-йиллар оралиғида Оролга тушадиган сувнинг ҳажми камая бошлади. Денгизнинг ҳажми 1970-йилларга келиб йилига 1м. 80 см пасайди ва Оролга йилига 1,6-2,7 $км^3$ сув тушиб, унинг сув сатҳи кейинги 27 -30 йил ичида 19-22 метрга пасайди. Ҳозир Оролда барчаси бўлиб 370 $км^3$ сув қолди. Денгиз майдони 35-40 минг км қисқариб олдинги сув босаётган ўринда ҳажми 35 минг $км^2$, Марказий Осиёдаги учинчи чўл "Оролқум" пайдо бўлди.

Айрим йиллар ичида Орол денгизи сув сатхининг ўзгаришга учраши қуйидаги суръатларда кўриш мумкин.



1-суръат. Айрим йиллар ичида Орол денгизи сув сатхининг ўзгаришга учраши хақидаги маълумотлар «Большое Аралское море в начале XXI века» номли монографиядан олинди. «Наука», 2014.

Oilaning asosiy vazifasi xam jamiyatga fidoyi, komil insonlarni etishtirib berishdan iborat. Zero, sog’lom bola sog’lom oilaning mevasidir. Sog’lom oila esa ma’naviy sog’lom muhitdagina paydo bo’ladi. Sog’lom inson deganda, faqat jismoniy sihat-salomatlikni emas, balki o’zbek xalqiga xos sharqona odob-axloq, milliy g’oya va bag’rikenglik, insonparvarlik kabi ezgu his-tuyg’ular ruhida kamol topgan ma’nan etuk insonni tushunishimiz mumkin.

Bola tarbiyasi eng murakkab faoliyatlardan biri hisoblanadi. Agar bolani to’g’ri tarbiyalash amalga oshirilmasa, ayrim hatti-harakatlari kutilmagan ko’ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim hollarda bolaning oilada ota-onasi tomonidan ko’rsatilayotgan ortiqcha hayrihohlik, erkalashlar, uning hohish istagiga ko’ra talablarini qondirishlari atrofdagi tengdoshlari bilan munosabatlarida tafovutlarga olib kelayotganligi kundalik hayotimizdan uchrab turadigan xolatdir. Ota-onaning namunasi uning oilada, jamoada mahallada tutgan mavqeidan kelib chiqadi. Zero, u sog’lom, jismonan tetik, ongli, ahloqli, xushmuomala, kasbining jonkuyari, vatanparvar, didli bo’lishi, mehribon ota yoki ona sifatida atrofdagilar diqqatini o’ziga qaratishi, jamoatchilik o’rtasida obro’-e’tibor qozonishi shart. Kattalarga hurmat va bo’ysunish o’zbek, qoraqalpoq v.b. oilalaridagi an’anaviy tarbiya uslublardan biridir. Oilada bolalarni to’g’ri tarbiyalash ota-onalarnigina emas, balki xonadondagi katta yoshli kishilarning namunasi, oila shaxsini shakllantiruvchi, uning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, jamoa orasida o’zini tuta bilishiga tayyorlovchi omildir.

Oilada qat’iy intizom va kun tartibining bo’lishi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta’sir qiladi. Farzandlarning bilim olishdagi yutug’i, ahloqi, salomatlik darajasi ko’p jihatdan oiladagi ma’naviy to’qlik va barqaror tartibga bog’liq. Ota-onaning bu tartibga oqilona amal qilib namuna bo’lishlari zarur. Farzandlarni mehnat orqali tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qadimdan mehnat - tarbiyaning asosi bo’lib hisoblangan. Inson tarbiyasi mehnatga bo’lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Jumaladan, shoir Alisher Navoiy farzandlarni o’z ota-onalarini qadrlashga da’vat etib: «Birisin oy angla, birisin quyosh», deya madh etadi. Oilada ota-ona o’z hatti-harakati bilan farzandlariga namuna bo’la olishi lozim.

Ba’zi ota-onalar farzandlari bilan kamroq muloqotda bo’lishi, ulardan o’zlarini uzoqroq olib yurishi bilan obro’ orttirishni o’ylashadi. Ularni nazarida, go’yo farzand bilan qancha kam uchrashilsa, shuncha ko’proq obro’ qozonish mumkin. Bu mutlaqo noto’g’ri tushuncha, ota-ona o’z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo’lsa, ular o’rtasida begonalashish, loqayd bo’lish holatlari kelib chiqadi.

Kuzatishlarimizga ko’ra, farzandlarga ortiqcha pand-nasihat qilaverish ham yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunonchi, ba’zi ota-onalar arzimagan mayda-chuyda masala bo’yicha ham uzundan uzoq, o’git-nasihat qiladilar, o’zlarining nasihatgo’yligini burch deb obro’ qozonib bo’lmaydi.

Oilada o’g’il farzand tug’ilganda avlodlar davomchisi, oila qo’rg’oni, yurt tayanchi, Vatan himoyachisi dunyoga kelgani vasf etilgan, o’g’il tuqqan ayolning ham hurmati oshgan.Ulg’ayib uylangach, jufti haloli unga itoatda, farzandlari hurmatda bo’lgan. Ota atalmish qo’rg’oni bor oila hayotning har qanday sinovlari oldida to’zimagan, balki toblangan.Ota bosh bo’lgan oilada o’sgan yigit or-nomusli, sheryurak, uquvli, mehribon, shijoatli, qiz bola esa hayoli, muomalali, oila, chaqqon, beg’ubor, samimiy, to’g’riso’z bo’lib tarbiyalangan.Payg’ambarimiz (s.a.v.) sahobalarga qarab:”Alloh nazdida sizlarning eng yaxshilaringiz ahli ayoliga yaxshilaringizdir”, deganlari rivoyat qilinadi.Bundan ko’rinib turibdiki, oilasiga sadoqat, farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan qaragan ota Allohning suygan bandasi hisoblanar ekan. Ota-ona obro’sini orttirishda, eng avvalo ibrat-namuna muhim rol’ o’ynaydi. Oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o’zlarini tarbiyalab borishlari kerak. O’zlarida etishmaydigan sifat va fazilatlarni to’ldirib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki, ota-onalarning tarbiya jarayonidagi iste’dodi – bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir. Ixlos, hurmat, obro’ning uzviy zanjiri bo’lib hisoblanadi. SHuning uchun unga alohida e’tibor berish farzand kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega. Oilaning muhim ahamiyatga ega bo’lgan yana bir funkciyasi tarbiyalash funkciyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi.

Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo’yish bilan cheklanmasdan, balki uning so’nggi g’ishti qo’yilguncha javobgardir.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma’lum bir siyosiy-g’oyaviy dunyoqarash, axloqiy me’yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «qush uyasida ko’rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga

oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o’zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.SHoumarov F. B., SHoumarov SH.B. Muhabbat va oila.-Toshkent, «Ibn Sino», 1994.-120s.
2.Qo’chqorova Z. Kelajak poydevori.-Qoraqalpog’isiton tongi.-Nukus, 2012.-2
3.Faxr ul Banot Sibg’atulloh qizi. Oila saboqlari. —Toshkent. 1992.-966.79.
4.Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari, - T,: «Ma’naviyat», 1998, -112 b.
5. Farzand tarbiyasida otaning mas’uliyati, vazifasi va majburiyati. M.Hasanova, oydinyol.uz
6. Abatov , A., & Risnazarova , A. . (2022). QORAQALPOQ XALQINING DINIY E’TIQOTIDA TAVOF QILISH MASALALARI. *Евразийский журнал сосиальных наук, философии и культуры*, *2*(12), 223–224. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/6274

AXMAD YUGNAKIYDIŃ DÓRETIWSHILIGI HÁM ONÍŃ “HIBATUL-HAQOYIQ” SHIǴARMASÍ.

Joldasbayev O.E. *-NMPI stajyor oqıtıwshısı*

Tariyxtan belgili bolǵanınday, túrkiy xalıqlar óz tariyxında bir neshe iri saltanatlardı dúzgen. Solardıń biri Qaraxaniylar mámleketi esaplanadı. Qaraxaniylar saltanatı túrkiyler dúzgen musılman mámleketi bolıp tabıladı. Túrkiy xalıqlarınıń ruwxıy jetilisiwinde qaraxaniyler dáwiri úlken áhmiyetke iye boladı. Sufizm menen baylanıslı dúnyaǵa kóz-qaras sol dáwir adamınıń sana-seziminiń qáliplesiwiniń negizi sanalıp, ol mámlekettiń mádeniy rawajlanıwın bekkemleniwine xızmet etti.

Qaraxaniylar saltanatında mámleketlik hám saray tili túrkiy tili bolǵan. Sebebi, qaraxaniylar qol astındaǵı xalıqlardıń kópshiligi túrkiy qáwimler edi. Bul óz náwbetinde túrkiy tildegi ádebiyattıń rawajlanıwına hám bahalı shıǵarmalardıń júzege keliwine jol ashtı. Usı dáwirlerde Maxmud Qashǵariydiń “Devonu luǵatit túrk”, Yusup Xas Hajibtiń “Kutadǵu bilik”, Axmad Yugnakiydiń “Hibatul-haqoyiq” shıǵarmaları jazıladı. Bul shıǵarmalardıń hár biri ózine tán mazmunǵa iye bolıp, kórkemligi, ideyalardıń tereńligi, reallıqtı qabıl etiw hám sáwlelendiriwdiń usılları menen ayırılıp turadı. Ózbekstanda XX ásirdıń 60-70-jıllarında Axmad Yugnakiydiń ómiri, dóretiwshiligi hám “Hibatul - haqoyiq”tiń ádebiy, tariyxıy, ideyalıq, filosofiyalıq

mazmun-áhmiyetin úyreniw boyınsha ilimiy jumısları alıp barıladı. Bunda belgili ilimpazlar professor N.M.Mallaev, K.Maxmudov, E.Rustamov, B.Valuxujaev, Yu.Djumabaev h.t.b. izertlewlerin atap ótsek boladı. Axmad Yugnakiydiń Ózbekstanda filosofiyalıq oylar tariyxında tutqan ornı, onıń etikalıq kóz-qaraslarınıń áhmiyeti boyınsha filosof alımlar da izertlew jumısların júrgizgen.[1:138-150].

Axmad Yugnakiydiń “Hibatul-haqoyiq” kitabı XII-XIII ásirlerde jazılǵan. “Hibatul-haqoyiq” tıń tabılıwı birinshi dúnya júzilik urıstıń baslarına tuwra keledi. Túrk ilimpazı Najib Osim Istanbuldaǵı Sufiya meshitiniń kitapxanasında mangol tilindegi shıǵarmalar toplamına kiritilgen bir qoljazbanı tabadı. Shıǵarma túrkiy tilde bolıp, ol mangolsha xatlar toplamına aljasıp kirip qalǵan eken. Bul qol jazba ele ilim álemine málim bolmaǵan Axmad Yugnakiydiń “Hibatul-haqoyiq” shıǵarması bolıp shıqtı. Qol jazba 1480 jıldıń 30 yanvarında Istanbulda Abdurazzaq Baxshiy tárepinen kóshirilgen.

Axmad Yugnakiydiń ómiri hám dóretiwshiligine ádebiyatshılar, tariyxshılar tárepinen qızıǵıwshılıq XX ásirdiń jigirmalanshı jıllarında baslandı. Professor Abdurauf Fitrat 1927-jılı basıp shıǵarǵan “Ózbek adabiyoti nomunalari” antologiyasına “Hibatul - haqoyiq” tan úzindilerdi kirgizedi. Bunnan soń, Abdurauf Fitrat sol dáwirdiń eń belgili “Maorif va o‘qituvchi” jurnalında (1928 j, 10 sanı) “Hibatul-haqoyiq” degen maqalasın jariyalaydı. Bunda Abdurauf Fitrat ózbek oqıtıwshıları ushın Axmad Yugnakiydiń ómiri, tuwılǵan jeri hám shıǵarmanıń jazılıw sebeplerine baylanıslı, tariyxıy fakt hám dereklerge tiykarlanǵan maǵlıwmatlardı beredi.

Axmad Yugnakiy XII-ásirdiń aqırı XIII-ásirdiń birinshi shereginde jasaǵan túrkiy-tilles dóretiwshi ullı tulǵalardıń biri. X-XII ásirlerde túrkiy ádebiyatlarda ádep-ikramlıq máseleleri, ádeplilikti násiyatlaw, adamgershilik páziyletlerine shaqırıwshı didaktikalıq shıǵarmalar keń orın aladı. Axmad Yugnakiydiń “Hibatul-haqoyiq” shıǵarması onıń ayqın mısalı boladı.

Axmad Yugnakiydiń ómiri hám iskerligi haqqında júdá az maǵlıwmat saqlanıp qalǵan. Onıń ómiri, sociallıq turmısı hám basqaları málim emes. “Hibatul-haqoyiq” tıń

ayrım bólimlerinde hám onıń nusqalarına basqalar tárepinen jazılǵan qatarlarda shayırdıń ómiri hám dóretiwshiligi haqqında az bolsa da, maǵlıwmatlar berilgen.Dástannıń bir nusqasındaǵı XV ásirde jasaǵan temuriylerdiń áwladlarınan bolǵan Arıslanxoja Tarxan jazbalarında tómendegi maǵlıwmatlar bar:

“Adibniń eri ati Yugnak erur,

Safolik ajib er, kóngullar yorur.

Atosi ati Maxmudi Yugnakiy,

Adib Axmad uǵli, yók, ul hech shaki.

Kitobining at erur Hibatul-haqoyiq”.

Demek, bul jazbalardan belgili bolǵanınday, shayırdıń atı Adib Axmad, atasınıń ismi Maxmud, tuwılgan jeri Yugnak, kitabınıń atı “Hibatul-haqoyiq” (“Haqıyqatlar sıylıǵı”) dep ataladı. Axmad Yugnakiy óz shıǵarmasınıń aldına qoyılǵan wazıypalar haqqında bılay dep jazadı: «Ismim Shayır Axmad sózim pándu násiyat, ádep beriwden ibarat».[2:93] «Hár bir adam shayırdıń sózine túsinip, oǵanámel qılsa, xalıq arasında húrmetke iye boladı» -dep kitaptaǵı qoyılǵan maqsetlerdi ámelge asırıw kerekligin tastıyıqlap ótedi.

Juwmaqlap aytqanda Axmad Yugnakiydiń jámiyetlik- filosofiyalıq hám etikalıq ideyaları usınday tariyxıy-mádeniy hám ruwxıy negizler tiykarında qáliplesti hám jetilisip bardı. Axmad Yugnakiy dóretiwshiliginde óz sáwlesin tapqan dúnyaǵa kóz-qarasınıń mazmunı hám áhmiyetin, onıń ilim hám bilim haqqındaǵı progressiv ideyaları belgileydi. Axmad Yugnakiydiń “Hibatul-haqoyiq” shıǵarmasınıń ilimge baǵıshlanǵan baplarındaǵı “bilim nurı menen saodat jolı ashıladı” degen ideya bugingi kún ushın hám áhmiyetli.

PAYDALANÍǴAN ÁDEBIYATLAR:

1.Mallaev N. Ózbek adabiyoti tarixi 1-kitob. – Toshkent, 1976, 138-150 betler.

2.А.Югнакий. Хабатулхақоийиқ. Т., Фан, 1971, 93-бет

3.АҳмадЮгнакий. Ҳибатулҳақойиқ (www.ziyouz.com kutubxonasi)

БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИ-ПЕДАГОГЛАРНИ МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА РИТОРИКА ЎРГАТИШ УЧУН ТАЙЁРЛАШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Шамуратова Х. - *НДПИ стажёр-ўқитувчи*

Ривожланган хорижий мамлакатлар ҳаётининг барча соҳаларида содир бўлаётган ўзгаришлар шароитида инсонпарварлик таълими ва унинг асосида шахснинг нотиқлик маданиятини шакллантиришга бўлган эҳтиёжи кескин ошди. Таълимни инсонпарварлаштириш зарурияти инсонпарварлик таълими ва тарбиясининг тарихий анъаналарига қайтиш, шахснинг ҳар томонлама ривожланиши, унинг ўзини ўзи англаши учун имкониятларни кенгайтириш зарурияти билан белгиланади.

Шахснинг нотиқлик маданиятини ёш давридаёқ шакллантиришда ҳар бир инсон ҳаётида зарур бўлган нотиқлик ва уни эгаллаш ҳақидаги билимлар кўникма ва малакаларни берадиган риторика муҳим рол ўйнайди.

Жаҳон миқёсида мактабгача таълим тизимида шахс камолотини таъминловчи, мактабгача ёшдаги болаларга зарурий билимларни ёшига мос равишда бериш, уларнинг билиш жараёнини, риторик қобилиятларини ривожлантириш технологиялари амалиётга тадбиқ этилмоқда. Халқаро ЮНЕСКО ташкилоти томонидан қабул қилинган, Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясидаги билимнинг мустаҳкам пойдеворига эга бўлиш, ижодий ва танқидий фикрлашларини ҳамда нотиқлик қобилиятларини ривожлантириш, ҳамкорлик қобилиятлари ва қизиқишларини кучайтириш масаласи [ПФ-5847-сон:1] бўйича мактабгача таълимни инновацион ёндашув асосида такомиллаштириш, боланинг қизиқиши, унинг хоҳиш ва истаклари, эҳтиёжи, имкониятларига йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Жаҳондаги таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида болаларнинг риторик ва нотиқлик қобилиятларини тажрибалар асосида ривожлантириш технологиясини ишлаб чиқиш ва уни амалга ошириш методикасини интеграллашган машғулотлар орқали такомиллаштиришга доир илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Шу билан бирга болаларда билиш жараёнининг ривожланиш тизимига компетенциявий ёндашув асосида болаларда нотиқликни, риторикани ўргатиш воситасида интеллектуал-англаш малакаларини, тадқиқий-билиш ва самарали рефлексив фаолият каби сифатларини оширишга йўналтирилган педагогик жараёнларни ташкил этишга алоҳида эътибор берилиб, уларнинг ёш ва психологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда муҳим ҳаётий компетенцияларни шакллантиришга оид илмий тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Республикамизда сўнгги йилларда мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари, бола шахсини ривожлантирувчи таълим концепцияси, боланинг ўзига хос ноёб сифатлари, ўқув-тарбия жараёнида болаларнинг ўқув-билиш қобилиятларини максимал ривожланишига йўналтириш тамойиллари, “Илк қадам” давлат ўқув дастурини амалга ошириш жараёнида тарбияланувчиларнинг ақлий ва ахлоқий сифатларини таркиб топтириш усулларини такомиллаштиришнинг меъёрий асослари яратилмоқда. “Болаларга таълим ва тарбия беришнинг муқобил шаклларини яратиш ҳамда ҳар томонлама ривожлантириш” устивор вазифа этиб белгиланди. Натижада мактабгача катта ёшдаги болаларнинг риторик қобилиятларини ўқув-билиш асосида ривожлантиришга кенг имкониятлар пайдо бўлди.[ЎРҚ-595: 2]

Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисидаги”ги Қонунида ДМТТ педагог ходимларининг болаларни ватанпарварлик, меҳнатга садоқат ва мамлакатимизнинг белгиланган қонунларига нисбатан ҳурмат билан муносабатда бўлиш руҳида тарбиялаш зарурлиги қайд этилган. “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш

тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори (2019 йил, 8 май)да “мактабгача таълим тизимига инновацияларни, илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш” вазифаси илгари сурилди.

Вазифалари:

- мактабгача ёшдаги болаларга риторикани ўргатишга тайёрлаш технологияларини ва бўлажак ўқитувчиларнинг тайёргарлик даражасини аниқлаш имкониятини берувчи компонент-мезон базасини ҳамда самарали тайёрлашни таъминлайдиган психологик-педагогик шартлар мажмуасини аниқлаш;

- олий таълим муассасалари бўлажак педагог-тарбиячиларни мактабгача ёшдаги болаларга риторикани ўргатишга тайёрлаш технологияларини ривожлантирувчи моделни ишлаб чиқиш;

- олий таълим муассасалари талабаларини мактабгача ёшдаги болаларга риторикани ўргатишга тайёрлаш технологияларини оддий тажрибалар асосида ривожлантиришга йўналтирилган педагогик имкониятларни аниқлаш;

- педагогика олий таълим муассасалари талабаларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг моҳияти тўғрисидаги илмий билимларни аниқлаштириш ва бўлажак педагогларни мактабгача ёшдаги болаларга риторика ўргатишга тайёрлаш технологиялари моделини такомиллаштириш;

- олий таълим муассасалари талабаларини мактабгача ёшдаги болаларга риторикани ўргатишга тайёрлаш қобилиятларини оддий тажрибалар асосида ривожлантириш мезонлари ва кўрсаткичларини такомиллаштириш ва тажриба-синов ишлари жараёнида синаб кўриш;

Мактабгача ёшдаги болаларга риторикани ўргатиш бўйича талабаларни келажакда педагогик фаолиятга тайёрлашнинг инсонпарварлик йўналиши, биринчи навбатда, инсон маданиятини фаол ижодий ва амалий ривожлантириш учун шарт-шароитларни яратиш, маданият олами ҳақидаги ўз тушунчасини,

ўзининг ижтимоий-маданий позициясини шакллантириш инсонпарварлик умуминсоний қадриятларни ўзлаштириш билан боғлиқ бўлиши керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 16 декабрдаги “Мактабгача таълим ва тарбия тўғриси”даги ЎРҚ-595

ЎЛИМДАН КЕЙИНГИ ҲАЁТ ТЎҒРИСИДАГИ ТАСАВВУРЛАР

Турекеев Қ.Ж. *-Нукус инновацион институти*

Анимистик тасаввурларнинг асосини руҳларнинг мавжудлигига ишонч ташкил қилиб, улар уч туркумга бўлинади: ёвуз руҳлар; ҳимояловчи ва асровчи эзгу руҳлар; аждодлар руҳлари. Аждодлар руҳларига сиғиниш анъанаси ниҳоятда яшовчан бўлиб, бугунги кунда ҳам сақланиб келмоқда. Бу анъана одамнинг ўлимидан сўнг ҳам унинг руҳи яшаб қолиб, тирикларнинг ҳаётига таъсир кўрсатиш қобилиятига эга эмиш каби тасаввурга асосланган. Тадқиқотчиларнинг фикрича, ушбу қараш ибтидоий патриархал – уруғдошлик муносабатлар замирида пайдо бўлиб, жаҳон динларининг таъсирига қарамай, бизнинг давримизгача етиб келган [Токарев: 255]. Қорақалпоқлардаги аждодлар руҳларига муносабатни бирмунча зиддиятли десак адашмаймиз. Бунда уларга ҳурмат билан бир вақтда хавотир ва қўрқув ҳислари намоён бўлади.

Туркий халқларда жон (руҳ) турли кўринишларда тасаввур қилинади. В.В.Бартольднинг қайд этишича, «… халқ тасаввурларига кўра, марҳумнинг жони қуш ёки ҳашаротга айланади» [Бартольд: 30]. Машҳур этнограф О.А.Сухарева эса руҳ капалак ёки пашшанинг шаклини олиши ҳақида ёзган [Сухарева: 31]. Хоразм ўзбекларининг тасаввур ва эътиқодларини батафсил ўрганган Г.П.Снесарев «ўлаётган одамнинг танасини жон қуш (одатда каптар) ёки парвона кўринишида тарк этади» деб қайд этган [Снесарев: 114]. Қорақалпоқларда энг кўп тарқалган қарашга кўра, марҳумнинг жони пашшага (*шыбын жан*) ўхшатилади.

Бошқа халқларда бўлгани каби, қорақалпоқларда ҳам руҳларнинг ёғ ҳиди билан тўйиниши тўғрисида тасаввур мавжуд. Бу одат юзасидан Г.П.Снесарев шундай ёзган: «Бунга биз муҳим аниқлик киритишимиз лозим: руҳларнинг озуқаси бўғирсоқнинг ўзи эмас, балки маросимий пиширикдан таралган *ис* ҳисобланади. Шунга мувофиқ, руҳларни озиқлантириш маросими «*ис чиқариш*» деб аталади» [Снесарев: 118]. Ушбу кун аждодлар руҳларини хотирлашга бағишланган кун бўлиб, қорақалпоқларда «*ийис куни*», туркманларда «*ыс куни*», ўзбекларда эса «*ис*» дейилган [Бердыев: 200; Аширов: 205].

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Фан, 2007.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Т. 5. – М.: Издательство восточной литературы, 1968.
3. Бердыев М. Традиционная похоронно-поминальная трапеза туркмен // Проблемы истории и этнографии советских и зарубежных туркмен. – Ашхабад: Ылым, 1990.Сухарева О.А. Ислам в Узбекистане. – Т.: АН УзССР, 1960.
4. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.
5. Токарев С.А. Ранние формы религии (Библиотека атеистической литературы). – М.: Политиздат, 1990.

ОНА ТИЛИНИ ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ЁРДАМИДА ЎРГАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Ибрагимова М.Х. - *НДПИ стажёр ўқитувчиси*

Она тилини ўрганишда тил имкониятларидан тўғри, аниқ, ўринли ва унумли фойдаланиш кўникма ва малакаларини ҳосил қилишда мантиқий-ижодий тафаккурни ривожлантириш, коммуникатив саводхонликни ошириш, миллий истиқлол ғоясини, шарқона тарбияни шакллантириш, талаба шахсини маънавий бойитиш асосий мақсадлардан саналади[1]. Бугунги кунда она тилини ўрганиш жуда катта аҳамиятга эга, чунки у ўзининг маданий ўзига хослигининг ажралмас қисми бўлиб, уларнинг мероси ва илдизлари билан боғланишга ёрдам

беради [2]. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, она тилида билим олиш когнитив ривожланиши ва академик ютуқларга таъсир қилиши мумкин.

Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) она тилини ўрганишда муҳим рол ўйнайди. Масалан, ўқувчиларга тилларни ўрганиш учун кўплаб мобил иловалар ва web-сайтлар мавжуд бўлиб, уларда интерактив ва самарали ўрганишга имкон берадиган видеолар, ўйинлар ва викториналар мавжуд [3]. АКТлари ўрганувчиларга виртуал тил алмашинуви дастурлари ва онлайн репетиторлар орқали реал контекстларда тилларини ўрганиш учун қобилиятларини виртуал муҳитда амалда синаб имкониятини беради.

Бундан ташқари, АКТ тилдаги йўқолиб бораётган атамаларни сақлаб қолиш ва тилни жонлантириш бўйича ҳаракатларни қўллаб-қувватлашга ёрдам беради. Масалан, ижтимоий тармоқлар орқали лингвистик ҳамжамият аъзоларини бирлаштириш ва ёш авлодга тилдан фойдаланишни тарғиб қилишда фойдаланиш мумкин. Бундан ташқари, технологиялар келажак авлодлар учун очиқ эканлигига ишонч ҳосил қилиш учун луғатлар, матнлар ва ёзувлар каби тил ресурсларини рақамлаштириш ва архивлаш учун ишлатилиши мумкин.

Она тилини ўрганишни турли йўллар билан қўллаб-қувватлаш учун замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишда бир қанча муҳим масалаларни ва уларнинг ечимларини эътиборга олиш керак. Жумладан:

- Турли хил технологик қурилмалар ва интернетга уланиш баъзи ўқувчилар учун муҳим муаммо бўлиши мумкин. Рақамли қурилмаларга ёки ишончли интернетга уланиш имконига эга бўлмаган талабалар онлайн ўқув машғулотларида қатнаша олмаслиги уларнинг таълим натижаларига таъсир қилиши мумкин;
- Она тилини ўрганиш учун мавжуд онлайн ресурсларнинг сифати ҳар хил бўлиши мумкин. Ўқитувчилар учун ўқув дастурлари ва ўқитиш мақсадларига мос келадиган юқори сифатли ресурсларни шакллантиришга эътибор қаратиш лозим бўлади;

- Тил ўрганишда АКТ дан фойдаланишнинг афзалликларидан бири бу ўқувчи учун индивидуал тажриба майдонини шакллантиришдан иборат. Бироқ, бунинг учун пухта режалаштириш ва ўқувчининг эҳтиёжлари ва афзалликларини чуқур таҳлил қилиш талаб этилади;
- Ўзаро таъсир ва жалб қилиш онлайн таълим муҳитида қийин бўлиши мумкин. Педагоглар ҳамжамият туйғусини тарбиялаш ва ўқувчиларни ўқув жараёнида фаол иштирок этишга ундаш йўлларини излашлари керак бўлади.
- Иммерсион тил ўрганишнинг муҳим жиҳати ҳисобланади, аммо онлайн муҳитда бунга эришиш қийин бўлиши мумкин. Ўқитувчилар ўқувчиларга тилни ҳақиқий контекстда ишлатиш ва она тилида сўзлашувчилар билан мулоқот қилиш учун имкониятлар яратиш йўлларини устида татқиқотлар олиб бориш зарурати келиб чиқади.
- Оғзаки тил кўникмаларига урғу бериладиган она тилини ўрганишни онлайн муҳитда баҳолаш қийин бўлиши мумкин. Буни ўқитувчилар ўқув мақсадларини акс эттирувчи ва онлайн баҳолаш чекловларини ҳисобга оладиган тегишли баҳолаш стратегияларини ишлаб чиқиш орқали амалга оширишлари мумкин.

Умуман олганда, замонавий АКТдан фойдаланиш она тилини ўрганишда қимматли ёрдам бериши мумкин, аммо ўқитувчилар ва ўқувчилар муваффақиятга эришиш учун юқорида санаб ўтилган бир қатор қийинчиликларни енгиб ўтишлари зарур бўлади. Тил ўрганишда АКТ дан самарали фойдаланишни пухта режалаштириш, доимий баҳолаш ва турли хил ўқувчиларнинг эҳтиёжларини қондириш мажбуриятини талаб қилади.

Хулоса қилиб айтганда, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари она тилини ўрганиш, йўқолиб кетиш хавфи остида бўлган атамаларни сақлаб қолиш ва лингвистик хилма-хилликни тарғиб қилиш учун кучли восита бўлиб хизмат қила олади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Б.Тўхлиев, М.Шамсиева, Т.Зиядова. Ўзбек тили ўқитиш методикаси // «Янги аср авлоди», 2006, 176 б.

2. Emrullah Yasin Çiftçi. A review of research on intercultural learning through computer-based digital technologies // Educational Technology & Society 19(2):313-327 pages.
3. Дорофеев В. Б. Игра-викторина как один из способов оптимизации обучения устному переводу (на примере организации и проведения ежегодного конкурса по устному переводу среди студентов направления подготовки «Международные отношения») // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – № S10.

РАСКОПКИ НА ГОРОДИЩЕ «КЫРК-КЫЗ КАЛА БОЛЬШАЯ»

Сапаров А.Ж. *-КГУ им.Бердаха*

Раскопки на городище Большая Кырк-кыз кала были начаты в 2019 году. Тогда на памятнике было заложено два раскопа. Раскоп 1 в в юго-западной части крепости и на Западном загородном комплексе (далее ЗЗК) расположенном к северо-западу от укрепленной части памятника (Китов, Болелов, Балахванцев, 2019, с. 57-68).

Весной 2021 года, после годичного перерыва, раскопки на памятнике были продолжены. Работы велись на трех основных раскопах. В юго-западной части городища, на том участке, где цитадель примыкает к крепостной стене были продолжены работы на стратиграфическом раскопе №1. В северной части памятника был заложен новый раскоп, который получил порядковый №2. Кроме того, были продолжены исследования монументального здания к западу от укрепленной части памятника – Западный загородный комплекс (ЗЗК)

Весной 2021 года были продолжены работы на Западном Загородном Комплексе (ЗЗК), которые были начаты в 2019 году (Китов, Болелов, Балахванцев, 2019, с. 65-68). Тогда небольшой раскоп был заложен в северной части здания, где была открыта западная часть коридорообразного помещения 1 и часть айвана (возможно входного?) сообщавшегося с помещением через проход. В 2021 г. были также продолжены работы в коридорообразном помещении II, которое сообщалось с предполагаемым айваном проходом в северной стене.

Осенью 2022 года Южно-Приаральская комплексная археологическая экспедиция продолжила археологические исследования на городище Большая Кырк-кыз-кала в Правобережном Хорезме. Основные работы проводились на объекте, расположенном за пределами укрепленной части памятника, в 300 м к западу от западной крепостной стены, который в первый же сезон раскопок получил название Западный загородный комплекс – ЗЗК (Китов, Болелов, Балахванцев, 2019, с. 65-68).

За два сезона полевых работ (2019 и 2021 гг.) в северной части комплекса частично было вскрыто два помещения – предположительно входного комплекса, также небольшой участок центрального зала или двора (?), где были найдены фрагменты полихромной настенной живописи (Балахванцев, Двуреченская, 2022, с. 36-45).

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Балахванцев, Двуреченская, 2022 – Балахванцев А.С., Двуреченская Т. О. Раскопки Западного загородного комплекса Большого Кырк-Кыза в 2021 году. // Восток-ORIENS, 2022, №1. С. 36-44.
2. Китов, Болелов, Балахванцев, 2019 – Китов Е.П., Болелов С.Б., Балахванцев А.С. Возвращение в Древний Хорезм: исследования совместной российско-каракалпакской экспедиции на Устюрте и Большом Кырк-Кызе. // Восток-ORIENS, 2019, №6. С. 52-70.

TYUTORLIÍQ ISKERLIGI TARIYXÍ HÁM QÁLIPLESIWI

Begaliev N.Q. *-NMPI tayanısh doktorantı*

Házirge dáwirge kelip mámleketimiz bilimlendiriw sistemasın jáhán talaplarına say ráwishte rawajlandırıw ushın mámleketimizde kóplegen is-ilajlar ámelge asırılmaqta.Joqarı oqıw ornılarında studentlerdiń tálim hám tárbiya protsessiniń uyqaslıǵın shólkemlestiriw, tálim shólkemi hám studentler ortasındaǵı qatnasıqlardı tártipke salıw, studentlerge sotsiallıq-mánáwiy hám psixologik járdem kórsetgen halda ózligin ańlaw, oqıw hám ómirde tuwrı qarar qabıl etiw, bilimlendiriw mákeesinde tálim-tárbiya protsessin nátiyjeliligin arttırıw, studentler qatnasın jaqsılaw menen baylanıslı máselelerde Jámaat keńesi hám máhálle ornın kúsheytiriw, studentlerdiń

sabaq shınıǵıwların ózlestirip barıwın analiz etiw hám sabaqtan bos waqıtların mazmunlı ótkeriwin támiynlew maqsetinde tyutorlıq lawazımı engizildi. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń "Ózbekstan Respublikası joqarı tálim sistemasında 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw konsepsiyasın tastıyıqlaw haqqında" 2019-jıl 8-oktyabrdegi PP-5847-sanlı Pármáni, Ózbekstan Respublikası Minstrler Kabinetiniń "Joqarı tálim shólkemlerinde tálim protsessin shólkemlestriw menen baylanıslı sistemanı rawajlandırıw is-ilajları haqqında" 2020-jıl 31-dekabrdegi 824-sanlı hám "Respublika joqarı tálim asırıw is-ilajları haqqında" 2021-jıl 9-sentyabrdaǵı 563-san qararları tıykarında bul lawazım joqarı oqıw orınlarına engizilgen bolıp[1:1], házirgi dáwirde mámleketimizdegi joqarı oqıw orınlarında ámelde qollanılmaqta.

Ózbekstanǵa tyutor ataması ingliz tilinen kirip kelgen bolıp, onıń tiykarǵı wazıypası studenlerdiń jeke rawajlanıwına, universitet, respublika hám xalıqaralıq kólemdegi tańlaw hám olimpiadalarda qatnasıw, sonday aq, olardıń bos waqtın mazmunlı ótkeriwge kómeklesiwshi insan bolıp, ol student jaslardı kásipke baǵdarlaw, túrli ilimiy dógereklerge qamtıw hám kemshiliklerdi úyrenip, olarǵa sheshim tabıw menen shuǵıllanıwshi shaxs esaplanadı. Sonıń mene bir qatarda sonı yadda tutıwımız kerek tyutor tariyxiy qáliplesken pedagogik protsess bolıp – ol oqıwshılar hám studentler ushın jeke tálim dástúrlerin islep shıǵıwǵa járdem beredi hám universitet, keńeytirilgen tálim hám úzliksiz tálim sistemalsrında jeke tálim protsessin toltıradı[2:250].

Tyutorlıq tálim protsessine rásmiy emes hám strukturasız túrde baslanǵan bolıp, XI ásirde shólkemlestirilgen. Biraq onıń tariyxi Áyyemgi Gretsiyaǵa barıp taqaladı. Áyyemgi Spartada bala 7 jasqa tolǵanda ata anasınan jıraq halda olarda arnawlı lagerlerde qatań ustazlar baqlawında olardı tárbiyalaǵan. Bunnan tiykarǵı maqset balalardı ruwxıy jaqtan rawajlandırıw arqalı olardı jawınger qılıw bolǵan. Bul dáwirde tyutorlıq xizmeti rásmiy tárizde bolmay onıń tiykarǵı maqseti oqıwshılardıń pán kónlikpesin qáliplestiriw xizmetin atqarǵan.Bul xizmet túri túrli mámleketlerde hár qıylı atamalar menen atalǵan bolıp, mısal sıpatında Áyyemgi Gretsiyada pedagog dep atalǵan bolsa, Áyyemgi Rimde latın tilinen kirip kelgen tutor ataması menen ataǵan [3:89]. Tyutorlıqtıń haqıyqıy Evropa universitetleriniń bilimlendiriw

sistemasına engiziliwi XII-XIV ásirlerge barıp taqaladı. Tyutorlıqtıń institutlasqan forması dáslep Angliya joqarı oqıw orınları Oxford (XII) hám Kembridj (XIII) da payda boldı. Bul universitetlerdiń tiykarǵı maqseti sol waqıttaǵı sawatlı qatlam bolǵan ruwxanıylardı tárbiyalaw edi [4:6]. Tyutorlıq XVI ásirge kelip Ingliz universitet isitemasınıń bir bólegi sıpatında tán alındı. XX ásirge kelip tyutorlıq iskerliginiń texnikasın úyreniw úlken qızıǵıwshılıq oyatqan hám Oxford alımı Will Mur bir qansha izzertlewler ótkerip tyutorlıq Britanıya bilimlendiriw sistemasınıń utısı dep esaplaǵan. Ol tyutor muǵallim emesligin aytıp ótedi; onıń tiykarǵı wazıypası bilim beriw emes, al onı studentlerdi ózleri izlep tawıw kerekligi tyutor bolsa oǵan járdemshi ekenligin aytıp ótedi. Bul jaǵdayda tyutor sınshı sıpatında bolıp, maǵlıwmatlardı saralawda, olardı tekseriwde hám olarǵa durıs usıl saylawda járdemshi bolǵan. Bul haqqında Will Mur: "Tyutordıń tiykarǵı funksiyası oqıtıw emes, al óz pikirlerin studentlerge jetkerip beriw, olardıń aldına maqset qoyıwǵa járdem beriw...."[5:88] – dep aytıp ótedi.

Házirgi dáwirge kelip da Oxford hám Kembridj universitetlerinde tyutor iskerligi tálim hám mánáwiyatti bekkemlewde úlken ról oynaydı. Tyutor iskerligi házirgi dáwirge kelip ózgerip, tyutor hám student ortasında birge islesiw bekkemlenbekte. Inglis múǵallimleri student penen professor oqıtıwshılar ortasında birge isleside jaqınlıq hám ashıqlıq bolsa ǵana onnan jaqsı kadr shıǵıwına isenim bildiredi. Tyutor bul qatnasıqtı jolǵa qoyatuǵın kópir wazıypasın atqaradı.

Tyurtorlıq xizmeti mámleketimiz joqarı oqıw orınlarına kirip kelgen jańa tálim-tárbiya usılı bolıp, iskerlikti jetilistiriw hám onı dúnya júzlik talaplarǵa say ráwishte rawajlandırıw ushın eń birinshi náwbette joqarı oqıw ornında tyutorlar is-rejesin qáliplestirip, olardı hár jılı arnawlı tayarlawshı kurslarda oqıtıw maqsetke muwapıq bolar edi dep oylaymız. Dúnya júzlik oqıtıw sistemasındaǵı talaplarǵa qaray otırıp bul usınıs maqsetke muwapıq bolar edi.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagodika institutida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidaǵı nızom
2. Gabdulhakov V.F. Tutor as a technology for the development of creativity: 2013. 250b

3. Kwieciński Zbigniew, Śliwerski Bogusław, Pedagogika, Warszawa 2004.
4. Proskurovskaya I.D. Reconstruction of Historical Basis of Tutoring 2009. 6b
5. Palfreyman D. The Oxford Tutorial: Sacred Cow or Pedagogical Gem? 2001. 88b

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SOG‘LOMLASHTIRUVCHI FITNESS-YOGA VOSITASIDA JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Davronov N.K. *-Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti*

Global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, fitness va yoga industriyasining jadal rivojlanishi oliy pedagogik o‘quv yurtlarida jismoniy madaniyat o‘quv jarayonini boshqarishga yangicha yondashuvlarni talab qiladigan ko‘plab prinsipial yangi vazifalarni qo‘yish zaruratini tug‘dirdi. Zamonaviy o‘qitish usullarini mukammal egallaydigan, sog‘lomlashtiruvchi fitnes-yoga amaliyoti bo‘yicha sog‘lom turmush tarzini shakllantira oladigan yangi avlod mutaxassislarini, uchinchi ming yillikning professional o‘qituvchilarini tayyorlash zarurati dolzarbdir [9].

Pedagogik kontekstda sog‘lom shaxs - bu nafaqat atrof-muhitga moslashishga, balki butun umri davomida sog‘lig‘ini saqlashga qodir bo‘lgan, sog‘liqni saqlash madaniyati haqidagi bilimlarga asoslangan shaxs sifatida qaraladi. Binobarin, barcha ta’lim muassasalarida nafaqat o‘quv faoliyatini takomillashtirish, balki salomatlik, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning salomatligi haqidagi ma’rifatini rivojlantiradigan texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish eng muhim ustuvor vazifa sifatida e’tirof etilishi lozim. Tadqiqotchilar bo‘lajak o‘qituvchilarni salomatligi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muammosiga katta e’tibor qaratishlariga qaramay, bu mavzu talabalarning jismoniy madaniyat jarayoni uchun yetarli darajada o‘rganilmagan [12]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2019-yilgi O‘zbekiston bo‘yicha turli kasallikdan vafot etgan aholining statistikasiga ko‘ra, yurakning ishemik kasallgi tufayli 33,0 mln aholi orasida 69725,27 ta odam vafot etgan [8]. Yurakning ishemik kasalligini yurakda qon aylanishni buzilishi tufayli yuzaga keladi. Qon aylanishni buzilishiga asosiy quyidagi asosiy sabablarni keltirish mumkin:

ortiqcha vazn, kam harakatlik (gipodinamiya), ruhiy zo‘riqish, noto‘gri turmush tarzi. Bularning barchasi mamlakatimizda bunday tadqiqotga katta amaliy ehtiyoj bor, chunki u bo‘lajak o‘qituvchilarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyoji va ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha o‘z faoliyatini tashkil eta olmasliklari o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga yordam beradi.

Psixologik kontekstda “ruhiy salomatlik” tushunchasi I.V.Dubrovina tomonidan psixologik xizmat mazmunini tushunish bilan bog‘liq holda faol foydalanilgan [11]. Amaliy psixologlar faoliyatining maqsadi insonlarning psixologik salomatligi ekanligi haqidagi qarashlari tegishli me’yoriy hujjatlarda mustahkamlangan. Bu faktni shaxsiyat rivojlanishidagi psixologik salomatlikning muhim rolining tasdig‘i sifatida ko‘rish mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning e’tiqodlari va qadriyatlari ta’lim mazmuniga, munosabat va qabul qilish usullariga ta’sir qiladi [9]. Bo‘lajak o‘qtuvchilar o‘zlarining shakllantiruvchi kelajakdagi faoliyatlarida ijobiy tajribaga ega bo‘lsalar, ular eng yaxshi amaliyotlarga mos keladigan ta’lim nuqtai nazarlarini rivojlantirish ehtimoli ko‘proq bo‘lishi isbotlangan [2]. Dalillar shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ta’lim davomida oldingi tajribalar va tadqiqotlarni tahlil qilish orqali xulosa chiqarib, yangi strategiyalar va innovatsiyalardan foydalanadigan bo‘lajak o‘qituvchilarning fitness-yoga vositasida salomatlik bo‘yicha egallangan bilimlar tajribasi bo‘lajak o‘qituvchilarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ular qo‘llaydigan pedagogik usullar haqidagi tushunchalarini o‘zgartirishga olib kelishi mumkin [3; 4; 7].

Fitness va yoga amaliyotlari bir-biridan elementar harakatlari bilan keskin farq qiladi. Sog‘lomlashtiruvchi fitness (ba’zan jismoniy fitness) - bu salomatlik va farovonlik holati, aniqrog‘i, sport, mashg‘ulotlar va kundalik faoliyatning jihatlarini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Ushbu qobiliyatga odatda to‘g‘ri ovqatlanish, o‘rtacha kuchli jismoniy mashqlar [1] va yetarli dam olish hamda to‘liq tiklanish rejasi orqali erishiladi. Yoga - bu qadimgi Hindistonda paydo bo‘lgan jismoniy, aqliy va ma’naviy amaliyotlar yoki intizomlar guruhi bo‘lib, ongni nazorat qilish va tinchlantirishga qaratilgan pozali amaliyotlar yig‘indisi hisoblanadi [6]. Bo‘lajak o‘qituvchilarning

jismoniy madniyatini rivojlantirishda fitnes-yoga texnologiyasidan foydalanish individual fanlar va o‘quv sohalari o‘rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda ta’lim oluvchilarni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘rgatish imkoniyatini beradi. Ta’lim oluvchilarning o‘quv jarayonini boshqarishni o‘qituvchi amalga oshiradi, u ushbu jarayonning maqsad va vazifalarini belgilaydi, ularning uyg‘un rivojlanishini amalga oshiradi, mashg‘ulotlarni o‘tkazishning usullari, shakllari va vositalari tizimidan foydalanadi. Maqsadga erishish va muammolarni hal qilish, shuningdek, fitnes-yoga texnologiyasi orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ta’lim sohasida salomatlik kontekstidagi vazifalarni yechgan bo‘ladi.

Bugungi kunda “jismoniy tarbiya” tushunchasi o‘rnini yanada jozibali va ommabop “fitness” atamasi egallamoqda. Lekin aerobika amaliyoti ham ushbu tushunchaga yaqin bo‘lib, u asosan insonning kardiorespirator tizimni stabillashtirishga qaratilgan jismoniy faollikdan iborat, fitnes tushunchasi esa kengroq ma’noga ega. Fitness yoki sog‘lomlashtiruvhi fitness jismoniy madaniyat tizimining tarkibiy qismiga kirib, u nafaqat jozibali tana shaklini saqlashni, balki intellektual, hissiy, ijtimoiy va ma’naviy kompetensiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari fitnes shifo, salomatlikni saqlash, shuningdek, tanani reabilitatsiya qilish muammosini hal qiladi. Bugungi kunda fitnes barcha yoshdagi odamlar uchun qiziqarli va foydali mashg‘ulot hisoblanadi. Tadqiqotchilar agar bo‘lajak o‘qituvchilarning salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan an’anaviy jamoaviy sportga asoslangan o‘quv dasturlari o‘quvchilarni faol va sog‘lom bo‘lishga yordam berishga qaratilgan bo‘lsa, jismoniy tarbiyaga yondashuvlar salomatlikni mustahkamlovchi xatti-harakatlarni o‘rgatish uchun ideal bo‘lmasligi mumkinligini ta’kidlaganlar [5] [6].

Sog‘lomlashtiruvchi harakterdagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda finess-yoga vositasi ko‘p qo‘llaniladi. Chunki ushbu vosita orqali olib borilgan juda ko‘p ilmiy tadqiqotlar o‘zining samarali yechimini topgan. Bundan tashqari sog‘lomlashtiruvchi fitness-yoga pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarni, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo‘lga kiritishga doir faoliyat tizimini amalga oshirishda eng

samarali vosita sanaladi. Ushbu vositani samarali amalga oshirish bo‘lajak o‘qituvchilarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali jismoniy madaniyatini rivojlantirish muammosini hal qiladi, chunki faqat jismoniy madaniyat tana va ma’naviy birlikni uyg‘unlashtirishga yordam beradi, jismoniy va ruhiy salomatlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishni ta’minlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar jismoniy madaniyatni qadriyat sifatida tushunishi salomatlikni shakllantirishda samarali omil bo‘lishi va jamoatchilik fikrini rivojlantirishning ilg‘or tendentsiyalari, jismoniy madaniyat qadriyatlarini madaniyatning bir turi sifatida o‘zlashtirish zarurati bo‘lishi shart.

S.A.Serper va O.M.Buranok fikricha, pedagogikaning o‘qitish komponentlari jismoniy tayyorgarlikka ta'siri bir necha kriteriyalar asosida sodir bo'ladi, ularning asosiysi bo'lajak o‘qituvchilarni fitness texnologiyalaridan foydalangan holda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy sharoitda jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarini fitness sohasiga ham kengaytirish muhimligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Biroq, hozirgi ta’lim sharoitida fitness sohasida ishlashga qodir bo'lajak mutaxassislarning kompetentsiyalarini shakllantirish uchun mas'ul bo'lgan kurslar va dasturlar mavjud emas. Ammo zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, fitness industriyasining jadal rivojlanishi, ushbu sohada professional kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borishi kabi omillar sog‘lomlashtiruvchi fitness mutaxassislariga katta talabni keltirib chiqardi. Hozirgi vaqtda sport va dam olish faoliyatining ushbu sohasi uchun yuqori professional, raqobatbardosh mutaxassislar uchun ijtimoiy buyurtmani kengaytirishni nazarda tutiladi [10]. Olimlarning tadqiqotiga ko‘ra, fitness-yogani o'quv jarayonida qo'llash sohasidagi mavjud nazariy va amaliy ishlanmalar yangi "fitness-yoga" kursining ta'lim maqsadlarini aniqlash masalasini jiddiyroq shakllantirish uchun asos beradi. Pedagogik ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ta'limning davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib, maqsad quyidagicha belgilanishi kerak: "bakalavrlarning o'z-o'zini tashkil qilish, sog'lom turmush tarzi va darajasini saqlash qobiliyatini shakllantirish, xalq salomatligini

muhofaza qilish davlat siyosatini amalga oshirish uchun fitness-yoga vositasi orqali jismoniy tayyorgarligini oshirish [10].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagogik ta’limni amalga oshirish uchun Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning jismoniy madniyatini sog‘lomlashtiruvchi fitness-yoga vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini yoritishda quyidagi agendalarni batafsil tahlil etish lozim:

a) bo‘lajak o‘qituvchilarning sog‘lomlashtiruvchi fitness-yoga amaliyotidan foydalanish imkoniyatlarini, ehtiyojlarini, yutuqlarini o‘rganish;

b) bo‘lajak o‘qituvchilarning yoshi, jinsi, jismoniy rivojlanganlik holati va sog‘liq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sog‘lomlashtiruvchi fitness-yoga texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganish;

c) sog‘lomlashtiruvchi fitness-yoganing alohida ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim faoliyatini ta’minlash;

d) sog‘lomlashtiruvchi fitness-yoga falsafasi asosida kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va shaxsiy o‘sishni amalga oshirish;

e) bo‘lajak o‘qituvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda bakalavrlarni o‘qitish jarayoniga yangi kursni kiritish uchun pedagogik model ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gudrun, C.L.de Groot & Lisbeth F. (2011). Older adults’ motivating factors and barriers to exercise to prevent falls // Scandinavian Journal of Occupational Therapy, 18:2. – P. 153-160.
2. Haerens, L., Kirk, D., Cardon, G., & De Bourdeaudhuij, I. (2011). Toward the development of a pedagogical model for health-based physical education. Quest, 63(3). – P. 321–338. https://doi.org/10.1080/00336297.2011.10483684
3. Ivtzan, I., & Papantoniou, A. (2014). Yoga meets positive psychology: Examining the integration of hedonic (gratitude) and eudaimonic (meaning) wellbeing in relation to the extent of yoga practice. Journal of Bodywork and Movement Therapies, 18. – P. 183-189.
4. McMahon, E., & MacPhail, A. (2007). Learning to teach sport education: The experiences of pre-service teachers European Physical Education Review, 13. – P. 229–246. https://doi.org/10.1177/1356336X07076878

5. Richards, K. A. R, Pennington, C. G., & Sinelnikov, O. (2019). Teacher Socialization in Physical Education: A Scoping Review of Literature. Kinesiology Review. Manuscript in print.
6. Sallis, J. F., McKenzie, T. L., Beets, M. W., Beighle, A., Erwin, H., & Lee, S. (2012). Physical education's role in public health: Steps forward and backward over 20 years and HOPE for the future. Research Quarterly for Exercise and Sport, 83(2). – P. 125–135. https://doi.org/10.1080/02701367.2012.10599842
7. Webster, C. A., Stodden, D. F., Carson, R. L., Egan, C., & Nesbitt, D. (2016). Integrative public health-aligned physical education and implications for the professional preparation of future teachers and teacher educators/researchers in the field. Quest, 68(4). – P. 457–474. https://doi.org/10.1080/00336297.2016.1229628
8. World health statistics 2019: Monitoring death causes by country (Uzbekistan).
9. Zhamardiy, V., Shkola, O., Kolhan, O., Padalka, R., Kolgan, T. (2021). Investigating the Pedagogical and Psychological Features of the PE Teacher's Activities During Mastering Fitness Technologies, J Res Med Dent Sci, 9 (7):. – P. 182-189.
10. Буранок О.М., Серпер С.А. (2019). Общекультурные, общепрофессиональные и профессиональные компетенции в разроботке курса «ФИТНЕС И ГИМНАСТИКА ЙОГОВ» для бакалавров педагогического образования // Самарский государственный социально-педагогический университет. Самарский научный вестник. Т. 8, № 1 (26) . – С. 235-238.
11. Дубровина, И.В. Практическая психология в лабиринтах современного образования. – М.: НОУ ВПО «МПСУ», 2014. – 464 с.
12. Мелешкова, Н.А., Урусов, Г.К. (2017). Педагогическое сопровождение формирования здорового образа жизни студентов в воспитательно-образовательном процессе вуза // ВЕСТНИК КемГУКИ 39/. - С. 195-201.

BUXORO JANUBIY TUMANLARIDA ARABXONA TOPONIMINING LEKSIK XUSUSIYATI

Axmatova I.H. *-NavDPI tayanch doktoranti*

Arabxona toponimi yurtimizning turli hududlarida uchraydi. Arab-etnik xalq nomi, xona-toponimik indikatorning qo‘shilishidan toponim nomi hosil qilingan.Arablarning Turkiston o‘lkasiga bosqini ikki bosqichda amalga oshirilgan. Dastlab, arablar bu hududni o‘rganish, tabiiy bva madaniy yodgorlikjlarini o‘zlashtirish va kichik harbiy yurishlar orqali katta janglarga tayyorgarlik ko‘rishni

maqsad qilganlar. Bu davr 650-705-yillarni o‘z ichiga oladi. Arablarning Buxoro o‘lkasiga kirib kelishi 670-yilga to‘g‘ri keladi. Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligidagi qo‘shin Buxoroga yurish qilib, Romitan va Boykandni (Poykent) egallaydi. Sa’d ibn Usmon boshchiligidagi qo‘shin 676-yilda Buxoroga kirib keladi. Arablar bosqinining ikkinchi bosqichi 706-yildan boshlanib, Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi qo‘shin dastlab Poykentni, 708-709-yillarda esa Buxoro va uning atrofidagi yerlarni egallaydi. Shu tariqa, arablarning Turkiston o‘lkasiga kirib kelishi boshlanadi. Arab xalqlari Buxoro janubiy tumanlaring turli qismlarida qo‘nim topadilar. Buxoro viloyatida 61 ta Arabxona, 31 ta Arablar nomli toponimlar uchraydi. Jondor, Qorako‘l, Olot tumanlarida ham Arabxona nomli toponimlar mavjud:

#	Nomi	Geografik obyekt guruhi	Geografik obyekt turi	Manzil
1	Arabxona-1	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Ko'cha	Buxoro viloyati Jondor tumani
2	Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Ko'cha	Buxoro viloyati Jondor tumani
3	Torob Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Aholi punkti	Buxoro viloyati Jondor tumani
4	Arablar	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Ko'cha	Buxoro viloyati Jondor tumani
5	Arablar	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Aholi punkti	Buxoro viloyati Jondor tumani
6	Yuqori Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Ko'cha	Buxoro viloyati Qorako'l tumani
7	Quyi Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Ko'cha	Buxoro viloyati Qorako'l tumani
8	Ko‘hna Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Aholi punkti	Buxoro viloyati Qorako'l tumani

#	Nomi	Geografik obyekt guruhi	Geografik obyekt turi	Manzil
9	Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Mahalla	Buxoro viloyati Qorako'l tumani
10	Arababdal	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Aholi punkti	Buxoro viloyati Qorako'l tumani
11	Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Ko'cha	Buxoro viloyati Olot tumani
12	Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Aholi punkti	Buxoro viloyati Olot tumani
13	Arabxona	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Mahalla	Buxoro viloyati Olot tumani

Respublika bo‘ylab arablar yashaydigan hududlar, ya’ni arabxona, Arablar, Arabon nomli toponimlar 152 tani tashkil etadi.

